




Texnologik mashinalar va jihozlar



2022



To'qimachilik va yengil sanoat
mashinasozligida innovatsion
texnika va texnologiyalar

O'quv uslubiy majmua

Mualliflar: SH.Xakimov, X.Abdugaffarov
D.Muxammadiyev, P.Butovskiy

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Mazkur o‘quv uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: TTESI t.f.d., dots. SH.Hakimov
 FA, t.f.d., prof. D.Muxammadiyev
 TTESI kat.o‘qit. X. Abdugaffrov
 TTESI kat.o‘qit. P. Butovskiy

Taqrizchilar: t.f.n., dotsent K.Yunusov – TTESI, “To‘qimachilik matolari texnologiyasi” kafedrasи dotsenti.
Xorijiy ekspert: t.f.d., professor A.Plexanov – Kasigina nomidagi to‘qimachilik instituti kafedra mudiri (Rossiya).

O‘quv uslubiy majmua Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti uslubiy Kengashining 2020 yil 25 dekabrdagi 5-son qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I.	ISHCHI O‘QUV DASTURI.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.....	9
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	14
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	54
V.	GLOSSARIY.....	97
VI	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	98

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 noyabrdagi “Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3408-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyundagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 397-son hamda 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Ushbu dasturda to‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar, mexanik ishlov berish jarayonini loyihalash, tarmoq mashinasozligida yangi innovatsion texnologik vositalar – metall qirquvchi dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblari, CHPU 4 dastgohi uchun mexanik ishlov berish dasturini tuzish, tarmoq mashinasozligida texnologik mashinalarni tayyorlashda yangi konstruksion materiallardan foydalanish, texnologik mashinalarning qismlarini ishlab chiqarishda zamonaviy ishlov berish usullaridan foydalanish (metallarni lazer bilan kesish, elektroerroziyaga qarshi ishlov berish va boshqalar), yuzalarga plastik deformatsiyalash usullari bilan ishlov berish, texnologik mashinalarni zamonaviy yig‘ish usullari, asbob va moslamalar, to‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan korxonalar qamrab oladi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Modulning maqsadi va vazifalari

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar **modulining maqsad va vazifalari**:

Modulning maqsadi: To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar.

Modulning vazifasi: paxtani dastlabki ishlash, yig‘irish, to‘qish, tikuv va tikuv-trikotaj va ipak ishlab chiqaruvchi mashina va jihozlar ularning ishlash usullari, zamonaviy paxta, to‘qimachilik, yengil sanoat ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan mashinalar, ularning afzallik va kamchiliklari. zamonaviy to‘qimachilik, yengil va paxta sanoati korxonalaridagi texnika va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini tahlil qilish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- to‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalarni;
- mexanik ishlov berish jarayonini loyihalashni;
- tarmoq mashinasozligida yangi innovatsion texnologik vositalar – metall qirquvchi dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblarni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- to‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish;
- texnologik mashinalarning qismlarini ishlab chiqarishda zamonaviy ishlov berish usullarini qo‘llash;
- mexanizmlarni ishga layoqatligini tekshirish uchun qistirmalarni avtomatik loyihalash tizimlarida animatsiyalash **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- metall qirquvchi dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblaridan foydalana olish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.

Tinglovchi:

- yuzalarga plastik deformatsiyalash usullari bilan ishlov berish;
- tarmoq mashinasozligida texnologik mashinalarni tayyorlashda yangi konstruksion materiallardan foydalanish;
- CHPU 4 dastgohi uchun mexanik ishlov berish dasturini tuzish;

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

– mustaxkamlikni oshirish uchun detall konstruksiyasini optimallashtirishda avtomatik loyihalash tizimlarini qo‘llash **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

– ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar, videomateriallar va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, “SWOT-tahlil”, Xulosalash» (Rezyume, Veyer), “Tushunchalar tahlili”, “Brifing” metodi va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulining o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Tarmoqdagi xorijiy texnologik mashinalar va jihozlar”, “Tarmoq mashina va jihozlarini loyihalashning zamonaviy usullari” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning shaxsiy axborot maydonini shakllantirish, kengaytirish va kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulining oliy ta’limdagi o‘rni

Modul To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar va ulardan ta’lim tizimida foydalanish orqali ta’limni samarali tashkil etishga va sifatini tizimli orttirishga yordam beradi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	nazariy	amaliy
1.	To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar.	2	2	-
2.	Mexanik ishlov berish jarayonini loyihalash.	2	2	-
3.	Tarmoq mashinasozligida yangi innovatsion texnologik vositalar – metall qirquvchi dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblari.	2	2	-
4.	CHPU 4 dastgohi uchun mexanik ishlov berish dasturini tuzish.	4	-	4
5.	Tarmoq mashinasozligida texnologik mashinalarni tayyorlashda yangi konstruksion materiallardan foydalanish.	4	-	4
6.	Texnologik mashinalarning qismlarini ishlab chiqarishda zamonaviy ishlov berish usullaridan foydalanish (metallarni	4	-	4

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

	lazer bilan kesish, elektroerroziyaga qarshi ishlov berish va boshqalar).			
7.	Yuzalarga plastik deformatsiyalash usullari bilan ishlov berish.	2		2
8.	Texnologik mashinalarni zamonaviy yig‘ish usullari, asbob va moslamalar.	2	-	2
9.	To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar	2	-	2
	Jami	24	6	18

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1- Mavzu: To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Texnologik mashinalar va jihozlar ishlab chiqarish. Aniqlik va ishchi yuza sifatini ta’minlash.

2- Mavzu: Mexanik ishlov berish jarayonini loyihalash.

Texnologik jarayonni loyihalash uchun dastlabki ma’lumotlar va loyihalash ketma-ketligi. Dastgohli operatsiyalarni tuzish. Mexanik ishlov berish ketma-ketligi va texnologik vositalarni tanlash. Mashinasozlikdagi texnik meyorlash, texnik asoslangan vaqt meyorlari. Texnologik jarayonni iqtisodiy samaraga erishish usullarini tanlash.

3- Mavzu: Tarmoq mashinasozligida yangi innovatsion texnologik vositalar – metall qirquvchi dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblari.

Metallarni kesib ishlash va dastgohlar. Metallarni kesib ishlash to‘g‘risida umumiyligi tushunchalar. Keskich, uning qismlari va elementlari. Keskich burchaklari. Asbobsozlik materiallar, kimyoviy tarkibi, turlari, xususiyatlari, qo‘llanilish doirasi. Abraziv materiallar. Mexanik xossalari va qo‘llanilish doirasi. abraziv asboblarining qattiqligi, donadorligi va strukturasи.

AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

1- amaliy mashg‘ulot:

CHPU 4 dastgohi uchun mexanik ishlov berish dasturini tuzish.

CHPU 4 dastgohining ishlash tartibi. CHPU-4 dastgohining uchun mexanik ishlov berish dasturini tuzish.

2- amaliy mashg‘ulot:

Tarmoq mashinasozligida texnologik mashinalarni tayyorlashda yangi konstruksion materiallardan foydalanish.

Tarmoq mashinasozligida texnologik mashinalarni tayyorlashda nometall, kompozision va kukunli materiallar, qattiq qotishmalar va mineralokeramik qattiq

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

qotishmalar, rezina va kompozitsion materiallar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, sinchlovchi materiallar va ularning xossalari, nanotexnologiyalarni fundamental asoslari, nanomateriallar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, nanomateriallarni mexanikaviy maydalash bilan olish hamda nanoo‘lchamli kukunlarni yig‘ish usullarini o‘rgatishdan iborat.

3- amaliy mashg‘ulot:

Texnologik mashinalarning qismlarini ishlab chiqarishda zamonaviy ishlov berish usullaridan foydalanish (metallarni lazer bilan kesish, elektroerroziyaga qarshi ishlov berish va boshqalar).

Suyuqlikdagi impulsli elektr razryadidan kelib chiqadigan elektr eroziyasining mohiyatini o‘rganish va EDM unumдорligini, pürüzlülüğünü va aniqligini belgilaydigan asosiy omillar ta’sirini eksperimental o‘rganish.

4- amaliy mashg‘ulot:

Yuzalarga plastik deformatsiyalash usullari bilan ishlov berish.

Plastmassa deformatsiyasi usullari bilan qismlarni tiklash va qattiqlashishda ishlatiladigan texnika, texnologiya, uskunalar va moslamalar bilan tanishish, qismni mustahkamlash va sifatini baholash.

5- amaliy mashg‘ulot:

Texnologik mashinalarni zamonaviy yig‘ish usullari, asbob va moslamalar.

Texnologik mashinalarni zamonaviy yig‘ish usullari, asbob va moslamalarni o‘rganish, yig‘ish usullarini o‘rganish, yig‘ish aniqligi va uning mashina ish sharoitiga tasirini o‘rganish.

6- amaliy mashg‘ulot:

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalar bilan tanishishdan iborat.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.

«FSMU» metodi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:



- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: “To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Keys-stadi” metodi.

«Keys-stadi» - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’moti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sirlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Amerika Qo‘shma Shtatining «Samuel Djekson» mashinasozlik firmasi tayyorlagan texnologiyasi bilan «Kontinental Igl» mashinasozlik firmasi

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

tayyorlagan texnologiyasi zavodga urnatildi. Ma’lum vaktdan keyin «Kontinental Igl» mashinasozlik firmasi tayyorlagan texnologiya nuqsonli ishlay boshladi. YA’ni texnologiya bizni tolaga to‘g’ri kelmadidi.

- Texnologiyani tolaga moslashtirish ketma-ketligini izoxlab bering

«Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroficha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlrl bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Yig‘irish jaryonidagi texnologiyani ishlab chiqaruvchi fermalar					
Truetzscher		Marzolli		Rieter	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchilii
Xulosa:					

“Brifing” metodi.

“Brifing”- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferensiY.

O‘tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.
2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o‘yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag‘ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo‘ladi. Tinglovchilar tomonidan to‘qimachilik v yengil sanoat sohalari bo‘yicha innovatsion texnologiyalar bo‘yicha taqdimotini o‘tkazishda ham foydalanish mumkin.

“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida ta’lim oluvchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar



Test

Tilchasi bor ignalni mashinalarda halqa hosil qilish jarayonini 10 ta operatsiyasi

- Tugallash,
- Ipni qo‘yish,
- Ipni kiritish
- Ilgakni siqish, Eski halqani surish, Halqalarni birlashishi



Qiyosiy tahlil

- Tilchali ignalarda halqa hosil qilish jarayonini tahlil qiling?



Tushuncha tahlili

- Ikki orqa tomonli (teskari) halqa hosil qilish jarayoni izohlang...



Amaliy ko‘nikma

- Yassi ignadonli trikotaj mashinasi stoll (germaniya) ni tushuntirib bering


Venn Diagrammasi metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligini farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligini jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Pillaga ishlov berish mashinalar turlari bo‘yicha



1-Ma’ruza: To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar.

Reja:

1. Texnologik mashinalar va jihozlar ishlab chiqarish.
2. Aniqlik va ishchi yuza sifatini ta’minlash.

Tayanch so‘zlar: *mashina, mashinasozlik, texnologiya, mexanik ishlov berish, seriyali, ishchi yuza, g‘adir budurlik, notejislik.*

1.Texnologik mashinalar va jihozlar ishlab chiqarish

«Texnologiya» (grekcha ikki so‘z: tehne-san’at, mohirlik, ustalik va logos-so‘z, ilm) so‘zi tayyor mahsulot olish maqsadida tegishli ishlab chiqarish vositalari bilan xomashyo, materiallar, yarim xomashyoni ishlash (qayta ishlash) usullarini yig‘masini tizimlashtiradigan fanini anglatadi. Texnologiya tarkibiga ishlab chiqarishni texnik nazorati ham kiradi. Texnologik jarayonni texnik-iqtisodiy samaraborligini tasniflovchi eng muhim ko‘rsatkichlar: bitta mahsulotga xomashyo va energiyani sarfi; mehnat unumdarligi darajasi; jarayon jadalligi; ishlab chiqarish xarajatlari; mahsulot, buyum tannarxi.

Mashinasozlik texnologiyasini tadbiq etish va ishlab chiqish predmeti ishlov berish turlari, tayyorlamalarni tanlash, ishlov beriladigan yuza sifati, ishlov berish aniqligi, ishlov berishdagi quyim, tayyorlamalarni asoslash, yuzalarni yassi silindrik, murakkab shaklli va hokazolarga mexanik ishlov berish usullari, ko‘p ishlatiladigan-korpuslar, vallar, tishli g‘ildiraklar va hakozo detallarni tayyorlash usullari; yig‘ish jarayonlari (detal va qismlarni birikmalari tasnifi, yig‘ish ishlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish tamoyillari); moslamalarni loyihalash va boshqalar. Mashinasozlik texnologiyasi texnikani rivojlanishiga ko‘ra doimiy yangilanib va o‘zgarib turadi. Texnologiyani takomillashtirish-xalq xo‘jaligida texnik taraqqiyotni tezlashtirishni muhim shartidir. Zamonaviy texnologiyani rivojlanishini asosiy yo‘nalishlari: ishlab chiqarish ko‘lамини va mahsulot sifatini ta’minlash maqsadida uziluvchan, diskretli texnologik jarayonlardan tinimsiz avtomatlashtirilganiga o‘tish; mashinalar va jihozlarni samarali qo‘llash; xomashyoni, materiallar, yoqilg‘ini tejamkor ishlatish va mehnat unumdarligini oshirish uchun chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish; moslanuvchan ishlab chiqarish tizimlarini yaratish, mashinasozlikda robotlar va robotlashtirilgan texnologik majmualarni keng qo‘llash va boshqalar.

1.2. Mashinasozlikda ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar.

Materiallar va yarim xomashyodan o‘zini xizmat vazifasiga mos keluvchi tayyor mashina (buyum) olish uchun amalga oshirilgan barcha ayrim jarayonlar yig‘indisiga ishlab chiqarish jarayoni deyiladi.

Mashinasozlik zavodlarida amalga oshiriladigan ishlab chiqarish jarayoni, tabiat buyumlarini mashinaga aylantiruvchi hamma ishlab chiqarish jarayonlarining bir qismi hisoblanadi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Tayyor mashinaga aylantirilgunga qadar xomashyo va yarim xomashyolarni bosib o‘tgan barcha bosqichlarning yig‘indisi mashinasozlikdagi ishlab chiqarish jarayoni deb ataladi.

U quydagilarni o‘z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish vositalarini tayyorlash va xizmat ko‘rsatish, ish joyini tashqil qilish;

- material va yarim xomashyolarni qabul qilish va saqlash;
- mashina detallarining tayyorlashning barcha bosqichlari;
- buyum va uzellarni yig‘ish;
- tayyor buyum va detallarni tashish;
- texnik nazorat;
- yig‘ilgan buyumni bo‘laklarga ajratish;
- tayyor mahsulotni qadoqlash va boshqalar.

Berilgan texnik talablarga mos keladigan detal yoki buyum olish maqsadida material yoki yarim xomashyoni shaklini, o‘lchamini, xossalarni ma’lum ketma-ketlikda o‘zgartirish texnologik jarayon deyiladi. Mashinalarga mexanik ishlov berish texnologik jarayoni butun mashinani taylorlash umumiyligi texnologik jarayonini qismi hisoblanadi. Mashinalarni ishlab chiqarishni ko‘paytirish ishlab chiqarishni oddiy kengaytirishni (ekstensifikasiya) yo‘li bilan emas, balki birinchi navbatda texnologik jarayonini jadallashtirish (intensifikasiya) hisobiga ta’minlanishi kerak, shuning uchun mashinasozlik texnologiyasini asosiy vazifasi – yuqori unumdonli texnologik jarayon qurishdan iboratdir.

Tayyorlamalarni tayyorlash, termik ishlov berish, mexanik ishlov berish, yig‘ish kabi texnologik jarayonlarni ajratadilar. Tayyorlov tasnidagi texnologik jarayonlarda boshlang‘ich materialni berilgan o‘lchamlar va ko‘rinishdagi mashinalar detallari tayyorlamasiga aylanishi qo‘yish, bosim ostida ishlash, sortli yoki maxsus prokatni kesish hamda kombinatsiyalashgan usullarida amalga oshiriladi. Termik ishlov berish jarayonida detal materialini xosollarini o‘zgartiruvchi tuzilmaviy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Mexanik ishlov berish texnologik jarayoni deyilganda tayyor detal olguncha tayyorlamani holatini (eni geometrik shakllari, o‘lchamlari va yuzalari sifatini) ketma-ket o‘zgartirilishi tushuniladi. Ishlov berish uchun tayyorlamani dastgohga o‘rnataladi va maxkamlanadi. Ishlov berilgandan so‘ng tayyorlama dastgohdan yecxiladi, bu harakatlar tayyorlama holatini o‘zgartirmaydi, ammo ular shunchalik ishlov berish bilan bog‘langanki, ularni texnologik jarayondan ajratib bo‘lmaydi. Yig‘ish texnologik jarayoni bevosita buyum elementlarini malum ketma-ketlikda qismlarga (qismni yig‘ish), qismlar va ayrim detallarni buyumga yig‘ish (umumiyligi yig‘ish) bilan bog‘liq, uni amalga oshirish uchun ham bir qator elementlarni birlashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, yordamchi harakatlarni bajarish zarur bo‘ladi.

Texnologik jarayonni bajarish uchun ish joyini tashqil qilish va jixozlash zarur bo‘ladi. Bir yoki bir nechta shaxslar jamoasi ish bajarishi uchun belgilangan, detal va asoboblar saqlash stellaji, moslamalar, texnologik dastgoh joylashgan sex maydonining bir qismi ish joyi deb ataladi. Texnologik jarayon operatsiyalarga

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

bo‘linadi. Bir ishchi yoki ishchilar jamoasi bir ish joyida bajaradigan texnologik jarayonni tugallagan qismiga texnologik operatsiya deyiladi.


Operatsiyalar mazmunini bajarish ketma-ketligini belgilash texnologik jarayon loyihalash vazifasiga kiradi. Bu ishlab chiqarish uchun katta ahamiyatga ega, chunki texnologik jarayonni unumdorligi, nazorati va rejalshtirish operatsiyalar bo‘yicha hisobga olinadi. Tashqiliy nuqtai-nazardan operatsiya texnologik jarayonni asosiy va ajralmas qismi hisoblanadi. Operatsiyalarga asosan jarayonni mehnat hajmi, talab etilgan ishlab chiqarish ishcixilari va uni material-texnik ta’minoti (dastgohlar, moslamalar, asboblar) aniqlanadi.

Operatsiya bir yoki bir necha o‘rnatishda bajarilishi mumkin. O‘rnatish deb, tayyorlama yoki yig‘ilayotgan qismni maxkamlashni o‘zgartirmasdan bajariladigan operatsiyaning qismiga aytildi. Masalan: «detal aylanma sirtiga ishlov berish» operatsiyasi ikki marta o‘rnatishga ega bo‘lishi mumkin (1.1-rasm)

- 1-o‘rnatish – patronda bir tomondan ishlov berish (a);
- 2-o‘rnatish – patronda boshqa tomondan ishlov berish (b).

a)

b)




1.1-rasm. Detalni patronga o‘rnatish

Ishlov beriladigan detal moslamada turib, buruvchi qurilma yordamida, dastgohnning ishchi elementiga (masalan kesuvchi asbob) nisbatan o‘z holatini o‘zgartirishi va har xil holatni egallashi mumkin. Maxkamlangan detalni qo‘zg‘atmasdan o‘zgartirish jixozga nisbatan egallagan holatlarining har biri holat deb ataladi. Masalan: 3-shpindelli vertikal parmalash dastgohini teshikga ishlov berish (1.2-rasm).

- I- holat – tayyor detalni olib, tayyorlamani maxkamlash;
- II- holat – parmalash;
- III- holat – zenkerlash;
- IV- holat – razvertkalash

O‘rnatish va holat orasidagi farq shundan iboratki, o‘rnatishda detalni moslamaga nisbatan holati o‘zgarsa, holat almashtirilganda esa detal moslamaga nisbatan o‘z holatini o‘zgartirmaydi.



1.2 -rasm. Uch shpindelli vertikal parmalash dastgohida ishlov berish.

Operatsiya bir yoki bir necha o‘tishda bajarilishi mumkin.

Bir yuzaga bir yoki bir vaqtida ta’sir qiluvchi bir nechta asboblarda ishlov berishni o‘z ichiga olgan operatsiyaning bir qismiga texnologik o‘tish deb ataladi va u ishlov berilayotgan yuza, ishchi asbob va ishlash tartibini doimiyligi bilan tasniflanadi.

O‘tish bir yoki bir necha ishchi yurishda amalga oshirilishi mumkin. Yurish – o‘tish qismi bo‘lib, agar yurishlar bir nechta bo‘lsa, unda bir qatlamdan kesiladi, ulardan dastgoh ish tartibini o‘zgartirmasdan foydalaniladi.

Tayyorlamaga nisbatan asbobni bir karra siljishdan tashqil topgan, tayyorlama xossasi yoki yuza sifatini, shaklini, o‘lchami o‘zgarishi bilan kechadigan Texnologik o‘tishni tugallagan qismiga ishchi yurish deb ataladi. Masalan: Valikni silindrik yuzasini yo‘nish operatsiyasi, bu holda qora va toza yo‘nish, har xil kesish tartibiga ega bo‘lganligi uchun operatsiyaning alohida o‘tishlari bo‘ladi.

Agar qora yo‘nishda qo‘yimni hammasini birdaniga olib bo‘lmasa va bir necha martada olishga to‘g‘ri kelsa, o‘zgarmas kesish tartibida, har qatlamni olish bilan bog‘liq qismi ishchi yurish bo‘ladi.

Jilvirlashda juda ko‘p yurib o‘tishlar amalga oshiriladi. O‘tish uslublarga bo‘linadi. Ishchini ish bajarish jarayonida va unga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida bajariladigan alohida harakatlarni yig‘indisi uslub deyiladi. Masalan: Valikni qora yunishdagи o‘tish quyidagi uslublardan tashqil topadi: detalni patronga o‘rnatish, detalni maxkamlash, orqa babka markazini keltirish, dastgoh harakatini qo‘yish, kesuvchi asbobni keltirish, yo‘nib bo‘lgandan keyin dastgoh harakatini to‘xtatish va xokazolar. Ishchi uslub va uslub elementlariga sarf bo‘ladigan vaqtini o‘rganish asosida, yangi texnologik jarayonlarni ishlab chiqishda qo‘lda bajariladigan uslublarni meyorlash uchun foydalaniladigan turli meyoriy jadvallar ishlab chiqiladi.

1.3. Mashinasozlik ishlab chiqarish turlari va ularni texnologik jarayonlarini tasnifi.

Ishlab chiqarish dasturi hajmi, mahsulot tasnifi hamda ishlab chiqarishni amalga oshirishni texnik va iqtisodiy sharoitlarga ko‘ra barcha turli –tuman ishlab chiqarishlar shartli ravishda uch turga bo‘linadilar: donalab (individual) seriyali va ommaviy. Ishlab chiqarishning bu xar xil turlarida ishlab chiqarish va texnologik

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

jarayonlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega va ularni har biriga ishlarini tashqil etishni ma’lum shakli tegishli bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, korxonani o‘zida, hattoki bir sexni o‘zida ishlab chiqarishni turli turlari bo‘lishi mumkin, ya’ni alohida mahsulot yoki detallar korxona yoki sexdan turli texnologik tamoyillarga ko‘ra tayyorlanishi mumkin: ayrim detallarni tayyorlash texnologiyasini donalab, boshqalari, masalan ommaviy ishlab chiqarishga mos keladi yoki ayrimlari-ommaaviyga, boshqalari esa-seriyaliga oid va hokazo. Masalan ishlab chiqarishni seriyalisiga tegishli bo‘lgan to‘qimachilik mashinasozligida ko‘p miqdorda talab etiladigan mayda detallar ommaviy ishlab chiqarish tamoyiliga ko‘ra tayyorlanadi.

Shunday qilib, butun korxona yoki sexni ishlab chiqarishini tasniflash ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni ustunli tasnif belgisi asosida bajariladi.

Tayyorlanadigan buyum umuman takrorlanmaydigan yoki noaniq vaqt oralig‘ida takrorlanadigan bo‘lsa, bunday ishlab chiqarish deyiladi.

Bir ish joyida davriy takrorlanishlarga ega bo‘lmagan turli operatsiyalarni bajarilishi, qo‘llaniladigan jixozlarning universalligi ning o‘ziga xos belgisi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni bu turida detallarni tayyorlash texnologik jarayoni zichlangan tasnifga ega: bitta dastgohda bir nechta operatsiyalar bajariladi va ko‘pincha turli konstruksiya va turli materiallardan tayyorlanadigan detallarga to‘liq ishlov beriladi. Turli xil ishlarni bir dastgohda bajarilishda uni sozlash va rostlash ishlariga ko‘p vaqt sarflanadi. da moslsmalar, kesuvchi va o‘lchov asboblarini universal turlari, asosan standartga moslari, qo‘llaniladi.

Bunday ishlab chiqarish turiga buyumning tajribaviy namunasini tayyorlaydigan eksperimental sexlar, yirik gidrotrubinalar, juda katta metall kirkuvchi dastgohlar, prokatlash dastgohlari, kemasozlik va boshqa shu kabi mahsulotlar ishlab chiqaradigan og‘ir mashinasozlik korxonalari kiradi.

Ma’lum vaqt oralig‘ida doimo takrorlanib turadigan buyumlarni seriyalab va detallarni partiyalab tayyorlashni amalga oshiradigan ishlab chiqarish seriyalab ishlab chiqarish deb ataladi. Ish joyida bir nechta davriy takrorlanadigan operatsiyalarning bajarilishi, detallar partiyasining kattaligi seriyalab ishlab chiqarishning asosiy belgisi hisoblanadi.

«Partiya» tushunchasi detallar soniga, «seriya» tushunchasi esa bir vaqtida ishlab chiqarishga tushiriladigan mashinalar soniga tegishlidir. Partiyadagi detallar soni va seriyadagi mashinalar soni turlicha bo‘lishi mumkin.

Seriiali ishlab chiqarishda seriyadagi mahsulotlar soni, ularni tasnifi va mehnat sarfi, yil davomida seriyada qaytalanishiga bog‘liq holda kichik seriyali, o‘rta seriyali va yirik seriyali ishlab chiqarishlarni ajratadilar. Bunday bo‘linish mashinasozlikni turli tarmoqlari uchun shartlidir: seriyadagi mashinalarni soni bir bo‘lganda, ammo turli o‘lchamli, ishlab chiqarishni murakkabligi, mehnat sarfiga qarab turli ishlab chiqarishlarga kiritish mumkin. (1.1-jadval)

Seriiali ishlab chiqarishda texnologik jarayon asosan differensiyallashgan, ya’ni alohida dastgohlarga biriktirilgan, alohida bo‘lingan ko‘rinishda amalga oshiriladi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Bunda dastgohlarni xar xillari ishlatiladi: universal, ixtisoslashtirilgan, maxsus, avtomatlashtirilgan va hokazolar, ayniqsa sonli dasturli boshqariladigan zamonaviy dastgohlardan keng foydalaniladi. Dastgohlar shunday tanlanishi kerakki, bunda bir seriyadagi mashinalarni ishlab chiqarishdan, konstruksiyasiga ko‘ra undan nisbatan farq qiladigan boshqa mashinalar seriyasini ishlab chiqarish mumkin bo‘lsin.

1.1-jadval

Seriyaga ko‘ra mashinalar sonini taxminiyl taqsimoti

Ishlab chiqarish turi	Seriyadagi mashinalar soni (kattaligiga ko‘ra)		
	Yirik	o‘rtacha	Kichik
Kichik seriyali	2-5	6-25	10-50
O‘rta seriyali	6-25	26-150	51-300
Yirik seriyali	25dan ortiq	150dan ortiq	30dan ortiq

Ixtisoslashtirilgan va maxsus moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblarini keng qo‘llanishi, detallarni tayyorlash texnologik operatsiyalari davriy takrorlanib turishi hisobiga, ularga ketgan xarajatlarni qoplaydi. U yoki bu turdagи dastgoh, moslama kesuvchi va o‘lchov asboblarini tanlash tegishli birlamchi iqtisodiy hisob-kitoblar asosida bajarilishi kerak. Seriyali ishlab chiqarish donalabga qaraganda iqtisodiy nuqtai-nazardan afzal, chunki bunda dastgohlardan va ishchilardan foydalanishni samaradorligi, mehnat unumdorligini yuqoriligi mahsulot tannarxini kamaytirishga olib keladi. Bunday ishlab chiqarish turiga, odatdagи metall qirquvchi dastgohlar, qo‘zg‘almas ichki yonuv dvigatellari, uncha katta bo‘lmagan gidroturbinalar, shuningdek, to‘qimacxilik mashinasozligi ishlab chiqarishlari va boshqalar kiradi.

Katta miqdordagi bir xil mahsulotlarni tayyorlanishi bitta ishchi joyida bir xil doimiy qaytalanuvchi operatsiyalarni tinimsiz bajarilishi orqali amalga oshiriladigan ishlab chiqarish ommaviy deyiladi.

Ommaviy ishlab chiqarish ikki ko‘rinishda bo‘ladi:-oqimli ommaviy ishlab chiqarish, bunda detallarni texnologik jarayondagi operatsiyalar tartibida joylashtirilgan ishchi joylar bo‘yicha belgilangan vaqt oralig‘ida uzluksiz harakati amalga oshiriladi. Mahsulot chiqarishga ketadigan vaqt oralig‘i takt deyiladi:

$$T = \frac{60 F_g * m}{N}, \text{ min}$$

Bu yerda: F_g –bir smenali ishda dastgohni yillik ish vaqt;

m -smenalar soni;

N -bir yilda ishlov beriladigan bir xil nomdagи detallar soni.

Ommaviy to‘g‘ri oqimli ishlab chiqarish. Bunda ham texnologik operatsiyalar ketma-ketligida joylashtirilgan ishchi joylarida detalga ishlov beriladi, ammo ayrim operatsiyalarni bajarishga ketgan vaqt xar xil bo‘ladi. Buning oqibatida ba’zi dastgohlar oldida detallar to‘rejaib qoladi va detallar harakati to‘xtashlar bilan boradi. Katta sondagi mahsulotlar chiqarish ommaviy ishlab chiqarishni tashqil etishga ketgan xarajatlarni oqlaydi va mahsulot tannarxi seriyali ishlab chiqarishga nisbatan kam bo‘ladi. Katta sondagi mahsulotlarni chiqarishdagi iqtisodiy samarodorlikni qo‘ydagicha aniqlash mumkin:

$$n \geq \frac{C}{S_c - S_m}$$

bu yerda: n - mahsulotlar birligi soni; S - seriyalidan ommaviy ishlab chiqarishga o‘tishidagi harajatlar; S_c – mahsulotni seriyali ishlab chiqarishdagi tannarxi; S_m - mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishdagi tannarxi:

Partiyadagi detallar soniga va operatsiyani biriktirish koeffitsiyenti qiymatiga bog‘liq holda ishlab chiqarishni u yoki bu turga mansubligini bilish mumkin.

Operatsiyalarni biriktirish koeffitsiyenti:

$$K_{o\delta} = \frac{O}{P}$$

bu yerda: O - bir oy ichida bajarilishi kerak bo‘lgan har xil texnologik operatsiyalar soni; P - har xil operatsiyalar bajariladigan ish joylarining soni.

Turli turdagи ishlab chiqarishlar uchun operatsiyalarni biriktirish koeffitsiyenti har xil qiymatlarga ega:

$K_{o\delta} = 1,0$ - ommaviy;

$1 < K_{o\delta} < 10$ - yirik seriyali;

$10 < K_{o\delta} < 20$ - o‘rta seriyali;

$20 < K_{o\delta} < 40$ - mayda seriyali;

$K_{o\delta} < 40$ - donalab.

2. Aniqlik va ishchi yuza sifatini ta’minlash

2.1. Yuza g‘adir-budurligini meyorlash va belgilash tizimi

Standartga binoan **yuzaning g‘adir-budurligi** – yuzaning, masalan, asos uzunlik ℓ yordamida ajratib ko‘rsatilgan nisbatan kichik qadamli notekisliklarning majmui.

Asos uzunlik ℓ – yuzaning g‘adir-budurligini tasniflovchi notekisliklarni ajratish uchun foydalilanadigan asos chiziq uzunligi. **Asos chiziq (yuza)** – berilgan geometrik shaklning chizig‘i (yuzasi) bo‘lib, profil (yuza)ga nisbatan ma‘lum tartibda o‘tkaziladi va yuzaning geometrik ko‘rsatkichlarini baholash uchun xizmat qiladi. G‘adir-budurlik detal yuzaki qatlamlarining qirindisi hosil bo‘lish natijasida paydo bo‘lgan plastik deformatsiyasi, kesuvchi qirralarning notekisliklari detal yuzasida aks etishi, ishqalanishi, yuzadan materjal parchalari yulib olinishi va boshqa sabablar tufayli paydo bo‘ladi, g‘adir-budurlikning sonli qiymatlari yagona asos deb qabul qilingan profilning o‘rta chizig‘idan o‘lchanadi.

Profilning o‘rta chizig‘i – nominal profil shakliga ega bo‘lgan asos chiziq, u shunday o‘tkazilganki, asos uzunlik chegarasida profilning shu chiziqdан o‘rtacha kvadratiga eng kam bo‘ladi. G‘adir-budurlikni profilning o‘rta chizig‘idan boshlab sanashni o‘rta chiziq sanoq tizimi deb atashadi, bunda o‘rta chiziq m harfi bilan belgilanadi. Agar g‘adir-budurlikni o‘lhash uchun yuzaning ℓ uzunligiga teng bo‘lgan qismi tanlangan bo‘lsa, qadami ℓ dan ortiq bo‘lgan notekisliklar (masalan, to‘lqinsimonlik) hisobga olinmaydi. Pribor ko‘rsatkichlari yoyilishini va notekisliklar tuzilishi bir xil bo‘lmasligini hisobga olib, g‘adir-budurlikni ishonchli

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

baholash uchun o‘lchashni yuzaning har xil joylarida bir necha marta qaytarish, o‘lchash natijasi sifatida bir nechta baholash uzunliklarida o‘lchangan g‘adir-budurliklarning o‘rtacha arifmetik qiymatini qabul qilish lozim.

Baholash uzunligi L- g‘adir-budurlik ko‘rsatkichlarining qiymatlari baholanadigan uzunlik. Uning tarkibida bir yoki bir nechta asos uzunlik ℓ bo‘lishi mumkin. Asos uzunlik ℓ ning qiymatlari quyidagi qatordan tanlanadi 0,01; 0,03; 0,08; 0,25; 0,80; 2,5; 8; 25 mm.


O‘zbekiston Respublikasi Standartiga (O‘zRST 646-95) binoan buyumlarning qanday ashyodan va usulda tayyorlanganligidan qat’i nazar ular yuzasining g‘adir-budurligini miqdoriy ravishda bitta yoki bir nechta ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin:

- profilning o‘rtacha arifmetigi R_a ;
- profil notekisliklarining o‘nta nuqtasi bo‘yicha aniqlangan balandiigi R_z ;
- profil notekisliklarining eng katta balandiigi- R_{max} ;
- profil notekisliklarining o‘rtacha qadami S_m ;
- profil mahalliy chiqiqlarining o‘rtacha qadami S, profilning nisbiy tayanch uzunligi t_p (1.3 rasm).

R_a ko‘rsatkichi afzal hisoblanadi.

Standart tuk bilan qoplangan va shunga o‘xshash yuzalar uchun qo‘llanilmaydi. Standartga, shuningdek, materlallardagi nuqsonlar (g‘ovaklar, kavaklar, darzlar) yoki tasodifiy paydo bo‘lgan shikastlar (tirnalgan, ezilgan va shunga o‘xshash joylar) uchun ham amal qilinmaydi.

R_a ko‘rsatkichi hamma profil notekisliklarining balandiigini, R_z ko‘rsatkichi eng baland profil notekisliklarining o‘rtacha balandiigini, R_{max} ko‘rsatkichi profilning eng katta balandiigini ta’riflaydi. S_m , S va t_p qadam ko‘rsatkichlari notekisliklar ajralib turadigan nuqtalarning shakli va joylashishini hisobga olish uchun kiritilgan, bu ko‘rsatkichlar profilning spektral tasnifini ta’riflaydi va ularni meyorlash imkonini beradi.



1.3-rasm.Yuzaning profilyogrammasi va g‘adir-budurlikning asosiy ko‘rsatkichlari.

Notekisliklar balandiiklari bilan bog‘liq g‘adir-budurliklarning ko‘rsatkichlari.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Profilning o‘rtacha arifmetik og‘ishi R_a – asos uzunlik (ℓ) chegarasida profil og‘ishlari mutlaq o‘lchamlarining o‘rtacha arifmetik qiymati, ya’ni:

$$R_a = \frac{1}{\ell} \int |y(x)| dx \text{ yoki}$$

$$R_a = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n |y_i|,$$

bu yerda; ℓ – asos uzunlik; n – asos uzunlik chegarasida tanlangan profil nuqtalarining soni; y_i – profilning tanlangan nuqtasi bilan o‘rta chiziq orasidagi masofaning mutloq qiymati.

Profil notekisliklarining o‘nta nuqtasi bo‘yicha aniqlangan balandiigi R_z – asos uzunlik(ℓ) chegarasida profilning eng katta beshta cho‘qqi balandiigi va beshta chuqurchasi chuqurligi o‘rtacha mutloq qiymatlarining yig‘indisi,

$$R_z = \frac{1}{5} \left[\sum_{i=1}^5 |y_{pi}| + \sum_{i=1}^5 |y_{vi}| \right]$$

bu yerda; y_{pi} -profilning eng katta **i** cho‘qqining balandiigi; y_{vi} - profilning eng katta **i** chuqurchasining chuqurligi.

G‘adir-budurlik ko‘rsatkichlari va uning sonli qiymatlarini tanlash.

Detallar yuzalarining g‘adir-budurligiga bo‘lgan talablar buyumning sifatini ta’minlash uchun yuza vazifasiga qarab joriy qilinishi lozim. Agar bunga zaruriyat bo‘lmasa, yuzaning g‘adir-budurligi nazorat qilinmaydi. Ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlar majmui har xil vazifali yuzalar uchun asoslangan g‘adir-budurliklarini belgilash imkonini tug‘diradi.

Masalan, ma’suliyatli detallarning ishqalanuvchi yuzalari uchun R_a (yoki R_z), R_{max} va t_p ning joiz qiymatlari hamda notekisliklarning yo‘nalishi, davriy yuklangan ma’suliyatli detallarning yuzalari uchun R_{max} , S_m , S va boshqalar tayinlanadi. R_a yoki R_z ko‘rsatkichlarini tanlashda shuni ko‘zda tutish kerakki, R_a ko‘rsatkichi g‘adir-budurlikni to‘laroq baholaydi, chunki uni aniqlash uchun haqiqiy profilning ko‘p nuqtalaridan uning o‘rta chizig‘igacha bo‘lgan masofalar o‘lchanadi va jamlanadi. R_z ko‘rsatkichini aniqlash uchun esa notekisliklarning faqat beshta chiqiq va chuqurcha orasidagi masofa o‘lchanadi xolos.

R_a ko‘rsatkichi bo‘yicha detalning foydalanish ko‘rsatkichlariga notekisliklar shaklining ta’siri bo‘lmaydi, chunki notekisliklar shakli har xil bo‘lsada R_a ning qiymati bir xil bo‘lishi mumkin. Masalan, 3.2- rasmida ko‘rsatilgan notekisliklar har xil shaklga ega, lekin R_a ning qiymatlari bir xil. G‘adir-budurlik xususiyatlarini yaxshiroq baholash uchun uning balandiik, qadam hamda shakl ko‘rsatkichi t_p ni bilish lozim.

Ma’suliyatsiz yuzalar uchun g‘adir-budurlik texnikaviy estetika, korrozion chidamlik va ishslash texnologiyasiga qarab belgilanadi. Yuza g‘adir-budurligiga bo‘lgan talablar ko‘rsatkichining (bitta yoki bir nechtasini) sonli qiymati (eng katta, eng kichik, va nominal qiymatlar oralig‘i) hamda meyorlanishi lozim bo‘lgan asos uzunligini ko‘rsatish bilan joriy qilinadi. Umumiyl holda ℓ ning qiymati R_a , R_z , va R_{max} ko‘rsatkichlarining joiz qiymatlari bo‘yicha 1.1 jadvalga binoan tanlanadi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar


Tarangli o‘tqizmalarning yeyilishga chidamliligi, kontakt bikrligi, mustahkamligi va biriktirilgan detallar yuzalarining boshqa foydalanish xususiyatlari kontaktning haqiqiy maydoniga bog‘liq. Ishchi yuklanish ostida hosil bo‘ladigan tayanch maydonini aniqlash uchun profil nisbiy tayanch uzunligi t_p ning egri chiziqlari ko‘rinadi. Buning uchun chiqiqlar va chuqurchalar chiziqlari orasidagi masofa t ning tegishili qiymatlari bo‘yicha bir nechta profil kesimining satxlariga bo‘linadi, har bir kesim uchun t_p qiymati aniqlanadi va tayanch uzunligi o‘zgarishining egri chizig‘i ko‘riladi t_p qiymatini tanlashda shuni ko‘zda tutish kerakki, uning kattalashishi bilan ishlov berish borgan sari ko‘proq mehnat talab qiladigan jarayonlar qo‘llanadi; masalan, $t_p = 25\%$ bo‘lsa tokar dastgohida toza ishlov berish, $t_p=40\%$ bo‘lsa xonlash (inglizcha honing – charxlash, ya’ni abraziv chorqirra doiralar bilan ishlov berish, doiralar ham aylanadi ham oldi-orqaga harakat qiladi) zarur.

R_a , R_{max} , R_z va asos uzunligi ℓ o‘rtasidagi bog‘lanish

1.1-jadval

R_a , mkm.	$R_z = R_{max}$, Mkm	ℓ , mm	R_a , mkm	$R_z = R_{max}$, mkm	ℓ , mm
0,025 gacha	0,10 gacha	0,08	3,2 dan	12,5 dan	2,5
0,025 dan ortiq 0,4 gacha	0,10 dan ortiq 1,6 gacha	0,25	ortiq 12,5 gacha	ortiq 50 gacha	
0,4 dan ortiq 3,2 gacha	1,6 dan ortiq 12, gacha	0,8	12,dan ortiq 100 gacha	50 dan ortiq 400 gacha	8

Agar R_a , R_z , va R_{max} ko‘rsatkichlari 1.1 jadvalda ko‘rsatilgan asos uzunlikda aniqlanishi zarur bo‘lsa, g‘adir-budurlikka bo‘lgan talablarda uning qiymati ko‘rsatilmaydi. Ko‘rsatkichlarning nominal qiymatlari g‘adir-budurlik ko‘rsatkichlari o‘rta qiymatlarining nominal qiymatidan joiz og‘ishlari % hisobida ko‘rsatilishi lozim, masalan, 10, 20, yoki 40 %. og‘ishlar bir tomonlama yoki simmetrik bo‘lishi mumkin [8].



1.4-rasm. Har xil shaklli, lekin R_a ning bir qiymatiga ega bo‘lgan yuza notejisliklari profillarining sxemasi

Ko‘rsatkichlarning nominal qiymati ko‘rsatilgan g‘adir-budurlikka bo‘lgan talablar faqat ma’suliyatli detallarga joriy etilishi tavsiya qilinadi. Yuza g‘adir-budurligiga talablar joriy qilinmagan bo‘lsa yuza nazorat qilinmaydi.

Notejisliklar yo‘nalishiga bo‘lgan talablar asoslangan hollarda va u yuzaning sifatini ta’minlovchi yagona usul bo‘lsa, ishlov usuli (yoki usullarning ketma-

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

ketligi) ko‘rsatiladi. Eng kichik ishqalanish koeffisienti va ishqalanuvchi detallarning yeyilishi harakati va notekisliklar yo‘nalishlari bir-biriga mos kelmaganda, masalan, superfinishlash yoki xonlash jarayonida hosil bo‘lgan notekisliklarning ixtiyoriy yo‘nalishida ta’minlanadi.

2.2. Yuza qatlamini fizik-mexanik xossalari

Mashina detallari yuza qatlamini fizik-mexanik xossalari ishlov berish jarayonida kuch va issiqlik omillarini yig‘ma ta’siri natijasida o‘zgaradi. Tig‘li asboblar bilan ishlov berishda nisbatan kuch omillari ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida metall tuzilishi buziladi, kristallar buriladi va siljiydi hamda yuza qatlamida mikroqattiqlikni o‘sishi va qovushqoqlikni pasayishini ifodalovchi naklyop hosil bo‘ladi.

Naklyoplash chiqurligi va qoldiq kuchlanish ishlov berilayotgan material sifati va mexanik ishlov berish sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi, ularga shuningdek metall yuza qatlamlarini mahalliy qizishi katta ta’sir ko‘rsatadi.

Yuza qatlamda ishlov berish tartiblariga bog‘liq bo‘lgan musbat yoki manfiy qoldiq kuchlanishlar paydo bo‘ladi. Tayyorlamalarga mexanik ishlov berishda yuza qatlamda qoldiq kuchlanishlarni paydo bo‘lishiga quyidagilar sabab bo‘ladi:

-ishlov berilayotgan material yuzasiga kesuvchi asbobni ta’siri natijasida, uni yuza qatlamida plastik deformatsiya boradi va u metalni ba’zi bir fizik xossallarini o‘zgarishiga va metallni mustahkamlanishiga olib keladi.

Plastik deformatsiyalangan metallni yuza qatlamida zichligini kamayishi tufayli xajmini oshishiga, u bilan bog‘liq bo‘lgan va deformatsiyalashmagan quyi qatlamlari to‘sinqlik qiladi, buning natijasida tashqi qatlamda siquvchi, quyi qatlamlarda esa – cho‘ziluvchi qoldiq kuchlanishlar hosil bo‘ladi;

-kesish joyida hosil bo‘layotgan issiqlik metallni ingichka yuza qatlamlarini bir zumda yuqori temperaturalargacha qizitadi va natijada uni nisbiy hajmi ortadi.

Kesuvchi asbobni ta’siri to‘xtatilgandan so‘ng, metall yuza qatlami tezda soviydi va u yuzani siqilishiga olib keladi, bungasovq holda qolgan quyi qatlamlar to‘sinqlik qiladi. Buning natijasida metallni yuza qatlamlarida cho‘ziluvchan qoldiq kuchlanishlar, a quyi qatlamlarda esa – ularni muvozanatlovchi siqiluvchan kuchlanishlari rivojlanadi [7].

Kesish tartiblarini va ishlov berish sharoitlarini o‘zgarishi metallni qizish xaroratlarini ortishiga, issiqlik omillarini oshishiga va cho‘zilish – siqilish qoldiq kuchlanishlarni o‘sishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, asbobni yeyilishi va o‘tmaslashib qolishi uni orqa yuzasini ishlov berilgan yuzaga ishqalanishini oshiradi, bu esa nisbatan katta chiqurlikka tarqaluvchi cho‘ziluvchan qoldiq kuchlanishlarni shakllanishiga olib keladi.

Qoldiq kuchlanishlarni shakllanishi uchun metallarni kimyoviy tarkibi, uni mustahkamligi, issiqlik o‘tkazuvchanligi va boshqa fizika va mexanik xossalari katta ahamiyatga egadir.


2.3.Yuza g‘adir – budurligiga ta’sir etuvchi omillar

Mexanik ishlov berilgan yuzani g‘adir – budurligiga ta’sir etuvchi barcha turli – tuman omillarni uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

- kesish jarayoni geometriyasi bilan bog‘liq geometrik sabablar;
- ishlov berilgan materlalni plastik va elastik deformatsiyalanishi;
- ishlov berilayotgan yuzaga nisbatan kesuvchi asbobni titrashini paydo bo‘lishi.

Geometrik sabablarga - notekisliklarni paydo bo‘lishini kesuvchi qirralar shakli va harakat trayektoriyasini ishlov berilayotgan yuzaga tushirilishi bilan izohlanadi. Geometrik nuqtai–nazardan notekisliklarni kattaligi, shakli va o‘zaro joylashuvi kesuvchi qirralarni shakli va holati va kesish tartiblarini kesuvchi tig‘ini ishlov berilayotgan yuzaga nisbatan harakat trayektoriyasini o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi elementlari bilan aniqlanadi.

Tayyorlamani bir aylanishida keskich surish kattaligiga siljiydi (mm/ayl) va 1 holatdan 2-chisiga o‘tadi (a). bunda ishlov berilgan yuzada keskich bilan olib tashlanmagan ma’lum metall qismi qoladi va qoldiq notekislik “m” hosil bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, yuza notekisliklarini shakli va kattaligi surish S_1 va kesuvchi asbob shakli bilan aniqlanadi (1.5 – rasm).



1.5 – rasm. G‘adir-budurlik hosil bo‘lishini geometrik sabablari

Masalan, surish qiymatini S_2 gacha kamaytirilganda notekislik balandiigi R_z kamayadi (b). Rejadagi burchaklar ϕ va ϕ_1 ni o‘zgarishi nafaqat balandiikka, balki yuza shakliga ham ta’sir ko‘rsatadi (c). Cho‘qqisi dumaloqlashtirilgan kesichchlarni qo‘llash yuza notekisligini kamaytiradi (d). Dumaloqlashtirish radiusini kattalashtirish g‘adir-budurlik balandiigi R_z ni kamaytiradi.

Tokarlashda g‘adir-budurlikni hosil bo‘lishini geometrik nuqtai-nazardan yuqoridagidek R_z notekisliklarni surish qiymati S va keskich uchidagi dumaloqlashtirish radiusi r ga bog‘liq holda aniqlash taklif etilgan, ya’ni:

$$R_2 = \frac{S^2}{8r}$$


Kesuvchi asbobni tayyorlashda va u o‘tmaslashib qolganda asbobni kesuvchi qirrasida notekisliklar va o‘yiqchalar hosil bo‘lib, ular ma’lum tarzda ishlov berilgan yuza g‘adir-budurligini oshiradi. Asbob tigini notekisligini ishlov berilgan yuza g‘adir-budurligiga ta’siri ayniqsa kichik surishlar bilan nafis tokarlashda, tig‘ notekisligi R_z kattaligi bilan yaqin teng bo‘lganda, ayniqsa sezilarli bo‘ladi.

Kesuvchi asbob o‘tmaslashib qolganda va unda o‘yiqchalar paydo bo‘lganda ishlov berilgan yuza g‘adir – budurligi tokarlashda – 50-60%, frezerlashda - 30-115%, parmalashda – 30-40% va razvyortkalashda – 20-30% ortadi.

Ishlov berilgan yuza g‘adir-budurligini oshishiga, shuningdek kesish tig‘ini dumaloqlashtirish radiusini oshishi ham sabab bo‘ladi, u metall yuzasidan deformatsiyalanishini oshiradi va natijada yuza g‘adir-budurligi ham ortadi. Yuqoridagi salbiy sabablarini yo‘qotish uchun asbob sifatli va o‘z vaqtida qayta charxlanishi kerak.

Metall yuza qatlamini plastik va elastik deformatsiyalanishi. Metallarga kesish bilan ishlov berilganda metall yuza qatlami plastik deformatsiyalanadi va natijada ishlov berilgan yuza notekisliklari shakli va o‘lchamlari keskin o‘zgaradi va odatda bunda g‘adir-budurlik ortadi.

Mo‘rt metallarga ishlov berishda metalni ayrim zarrachalarini toliqishi kuzatiladi va bu ham notekisliklar balandiigi va shaklini o‘zgarishiga olib keladi. Kesish tezligi tokarli ishlov berishda plastik deformatsiyalanishni rivojlanishiga eng sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir (1.6-rasm).




1.6-rasm. Kesish tezligini yuza g‘adir-budurligiga ta’siri

Kesish tezligi kattaligini 40 m/min gacha oshirishda mikronotekisliklar balandiigi eng yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Bunda katta issiqlik miqdori ajralib chiqishi natijasida, chiqayotgan qirindi keskich orqa va oldingi yuzasiga bosuvchi kuchlar ta’sirida oldingi yuzaga plastik yopishib o‘simta hosil qiladilar. Tezlikni yanada oshirishda o‘simta mo‘rtlashadi va 60-70 m/min. tezlikdan so‘ng yo‘q bo‘ladi, yuza g‘adir- budurliklari balandiigi kamayadi.

Turli xil ishlov berish usullarida surishni yuza g‘adir -budurligiga ta’siri turlicha bo‘ladi. Rejadagi burchagi 45° bo‘lgan standart o‘tuvchi keskich va cho‘qqisini kichik radius bilan dumaloqlashtirilganda surishni ta’siri ancha sezilarli bo‘ladi (1-egri chiziq). Keng kesuvchi qirrali keskichlar ishlatalganda surish g‘adir-budurlikka deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi (2-egri chiziq) (1.7-rasm).

Teshiklarni parmalash va zenkerlashda, yonli va silindrik frezalashda va boshqa ishlov berish usullarida surish kattaligini yuza g‘adir- udurligiga ta’siri nisbatan past bo‘ladi.




1.7 – rasm. Surishni yuza g‘adir-budurligiga ta’siri

Kesish chuqurligini yuza g‘adir-budurligiga ta’siri ham past. Mikronotekisliklar, shuningdek, asbobni orqa yuzasini ishlov berilayotgan yuza bo‘yicha ishqalanishidan ham kelib chiqadi va u kesuvchi asbobni yeyilishi bilan ortadi.

Yuza g‘adir – budurligiga tayyorlama materjalini mexanik xossalari, kimyoviy tarkibi va tuzilishi ta’sir ko‘rsatadi. Ishlov berilayotgan materjal qattiqligini ortishida yuza g‘adir-budurligi balandiigi kamayadi, qovushqoqligi yuqori bo‘lgan materlallarga ishlov berishda esa, ortadi. Ishlov berish jarayonida moylovchi – sovituvchi suyuqliklarni qo‘llash yuza g‘adir – budurligini, ularni ishlatmagan xolga qaraganda 25-40% ga kamaytiradi.

DMAD texnologik tizimi bikrliyi yuza g‘adir – budurligiga ta’siri. Ishlov berish natijasida olinadigan yuza g‘adir – budurligiga DMAD texnologik tizimi bikrliyi katta ta’sir ko‘rsatadi. Tayyorlamani siqish sharoitlaridan kelib chiqqan turli xil kesimlardagi bikrlikni doimiy bo‘lmasligi g‘adir – budurlikni ham o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ishlov berilayotgan valni konsol mahkamlanganda yuza g‘adir – budurligi valni erkin qismida ortadi. (1.8,a– rasm). Valni markazlarga o‘rnatib ishlov berilganda val uzunligini uni diametriga nisbatiga ko‘ra, yuza g‘adir – budurligi 1.8 – rasm, d,e ko‘rsatilgandek o‘zgaradi.

Yuza g‘adir-budurligi, DMAD texnologik tizimini bikrligini o‘ynashi hisobiga, 1-2 sinf oralig‘ida o‘zgaradi.



1.8 – rasm. DMAD tizimi bikrligini yuza g‘adir-budurligiga ta’siri

Texnologik tizim elementlarini titrashi asbob kesuvchi tig‘i holatini ishlov berilayotgan yuzaga nisbatan davriy ravishda o‘zgartirib turadi, ya’ni notekisliklar yaratadi. Titrash jarayoniga tizim bikrliyi, uni bo‘g‘inlaridagi tirkishlar, aylanuvchan qismlarni nomuvozanatligi, yuritmalar nosozligi va boshqalar sabab bo‘ladi.


2.4. Yuza sifatini mashina detallarini ekspluatatsion xususiyatlariga ta’siri.

Mashinani talab etilgan sifatini ta’minlash va uni boshlang‘ich holatini uzoq muddat saqlash asosan ularni detallarini yuzalari sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Mashinalarni ishdan chiqishga asosiy sabab (80% gacha) – detallar yuzalarini yeyilishidir.

Detal yuzalarini yeyilishiga makronotekisliklar, to‘lqinsimonlik va mikronotekisliklar ta’sir ko‘rsatadilar.

Makronotekisliklar va to‘lqinsimonlikda yuzalarni yeyilishi notejis boradi. Oldin yuzani chiqib turgan qismlari yeyiladi. Mikronotekisliklarda ham birinchi navbatda cho‘qqilar deformatsiyalanadi va eziladi. Moylovchi qatlam yuzada nisbiy bosim ma’lum qiymatdan oshib ketmaguncha ushlab turiladi. Ishqalanuvchi yuzalar asosan chiqib turuvchi qismlari bilan kontaktda bo‘lganlari tufayli, bu yerda moylovchi suyuqlik sizib chiqariladi va quruq ishqalanish sodir bo‘ladi.

Ishqalanuvchi yuzalarni yeyilishi ma’lum egri chiziq bo‘yicha boradi (1.9-rasm) I qism-birlamchi yeyilish davri, II qism – meyorli, ekspluatatsion yeyilish davri u ishni to‘g‘ri olib borishda va moylashni yaxshi amalga oshirishda uzoq muddat davom etadi, III qism – halokatli yeyilish davri.



1.9 – rasm. Ishqalanuvchi yuzalarni yeyilishi

1 – egri chiziq g‘adir – budurligi yuqori bo‘lgan yuza yeyilishini, 2 – egri chiziq esa g‘adir – budurligi kichik bo‘lgan yuza yeyilishini ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, ikkinchi holda birlamchi yeyilish kattaligi va vaqt kamayadi, ekpluatatsion meyorli yeyilish davri esa o‘zgarmay qoladi. **Birlamchi** yeyilishga mikronotekisliklarni shakli va balandiigi ta’sir ko‘rsatadi. O’tkir qirrali mikronotekisliklar yassi qirraliga qaraganda tezroq yeyiladi. Birikmadagi detallar yuzalarini g‘adir-budurligi asosan yeyilishni boshlang‘ich davrda ta’sir ko‘rsatadi. Meyorli ekspluatasiya davrida yeyilish yuza qatlamlarini fizik-mexanik xossalari va ishqalanayotgan juftlikni ishlash tartiblari (sirpanish tezligi, yuklama, moylash tasnifi) bilan aniqlanadi. Kesib ishslash jarayonida hosil bo‘lgan naklyop yuza yeyilishini 1,5-2 martaga kamaytiradi. Yeyilishni kamaytirishga yuza qatlamin qattiqligi, tuzilishi va kimyoviy tarkibi ta’sir qiladi. Birlamchi yeyilishni kamaytirish orqali ishqalanayotgan detallarni yeyilishiga bardoshiigini oshirish uchun ishlagan detal yuzalaridagi g‘adir-budurlikka mos yuzalar yaratish kerak. Qatlamda siqiluvchan qoldiq kuchlanishlar bo‘lishi yeyilishni birmuncha kamaytiradi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Qo‘zg‘almas birikmalarini sifati. Ikki detalni qo‘zg‘almas, mustahkam birikmasini olish uchun g‘adir – budurlik sinfi yetarlicha yuqori, mikronotekisliklar imkonи boricha kichik bo‘lishlari kerak. Presslaganda mikronotekisliklar cho‘qqilari eziladi va birlashayotgan detallar diametri o‘zgaradi. Presslash kuchi va taranglik hisob – kitoblarga qaraganda kichikroq bo‘ladi, chunki hisoblar mikronotekisliklar cho‘qqilari bo‘yicha o‘lchangan o‘lcham asosida bajarilgan. Birlashayotgan detallarni yuzalari g‘adir – budurliklari nisbatan past bo‘lganda birikmalar sifati va puxtaligi ortadi. Presslash qaytarilganda taranglik kamayadi, notejisliklar silliqlashib qoladi va birikma kuchsiz chiqadi.

Detallar mustahkamligi. Yuza sifati detallarni mustahkamligiga, ayniqsa o‘zgaruvchan yuklamalarda, katta ta’sir ko‘rsatadi. Detalni buzilishiga olib keladigan kuchlanishlar kontsetratsiyasi uni yuzasini notejisligi natijasida kelib chiqadi. Yuza qatlamida naklyop va siqilish kuchlanishlarini bo‘lishi detallarni (prujinalar, resorlar) mustahkamligini bir necha marta oshiradi, cho‘ziluvchan kuchlanishlarni bo‘lishi esa kamaytiradi. Yuza g‘adir-budurligi, shuningdek, birikmalarini moylash, ishqalanish, issiqlik o‘tkazuvchanlik va germetiklik sharoitlariga, yuzalarni nurni qaytarish va yutish qobilyatiga, quvurlarda gaz va suyuqliklarni oqish qarshiligiga, gidravlik mashinalarni kavittsion buzilishiga, yuzalar va tutashmalarni boshqa tasniflariga ta’sir ko‘rsatadi. Mashina detallarini toliqishiga mustahkamligi ko‘pchilik hollarda yuza qatlamidagi qoldiq kuchlanishlarni kattaligi, ishorasi va tarqalishi chuqurligi bilan belgilanadi. Nafis ishlov berish usullari bilan olingan yuqori yuza tozaligi toliqishiga mustahkamlikni keskin oshiradi, chunki mikronotekisliklar qanchalik kam bo‘lsa, metallni toliqishidan yuzasida darz ketish extimollari kamayadi.

Korroziyaga qarshilik. Metall detallarni yuzalarini korroziyalanishini gazlar, suyuqliklar, atmosfera ta’siri keltirib chiqaradi. Ishlov berilgan yuza g‘adir-budurligi qancha katta bo‘lsa, shunchalik korroziya kuchli bo‘ladi. Yuza sifatini oshirish korroziyaga chadamlilikni keskin oshiradi.

Qo‘pol g‘adir – budur yuzalarda korroziyani keltirib chiqaruvchi moddalar chuqurcha va o‘yiqchalarda o‘tirib qoladi, ular metall qatlamini o‘yib, yangi yuzalar ochib korroziyani kuchaytiradi. Yuzada naklyop bo‘lishi korroziyani 1,5-2 martaga tezlashtiradi, chunki bunday yuzada mikrodarzlar ko‘p bo‘ladi.

Mashinasozlikda, shuningdek, mashina detallarini chidamliligi va yeyilishga turg‘unligiga tegishili ko‘rsatgichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, naklyoplangan detallarni charxlashga chidamliligi 30-80% ga, yeyilishga turg‘unligi esa 2-3 marta ortadi va bunda naklyop tasnifi va yuza tozaligi kerakli darajada bo‘lishi kerak.

Mashina detallarini ishslash mudattlari va puxtaligiga metall yuza qatlamini roliklar bilan obkatkalash, maxsus naklyop, termik va kimyoviy –termik ishlov berish kabi jilovlovchi va mustahkamlovchi operatsiyalar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadilar. Mexanik ishlov berish usullari va tartiblarini o‘zgarishi yuzani ayrim tasniflarini o‘zgartiradi va bu esa, o‘z navbatida, detallarni ekspluatatsion xususiyatlarini o‘zgartiradi. Shuningdek, mashinalarni yuqori javobgarlikdagi detallarini tayyorlash va ularni qayta tiklashda metall yuza qatlamini sifatini, uni

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

berilgan ish sharoitlarida detal va butun mashinani ishlash qobiliyatiga ta’siri hisobga olinishi talab etiladi.

Nazorat savollari:

1. Mashinasozlikning texnikani rivojlanishidagi o‘rni nima deb hisoblaysiz?
2. Seriyali ishlab chiqarishning afzalliklari nimadan iborat?
3. Detal yuzasining sifatini ta’minlash uchun bugungi kunda qanday ishlov berish usullari mavjud?
4. G‘adir-budurlik ko‘rsatkichlarini tushuntiring.
5. G‘adir-budurlik hosil bo‘lishini geometrik sabablari?
6. Yuza notekisliklarini bartaraf etish usullarini keltiring?
7. Yuza qatlamini fizik-mexanik xossalari keltiring.
8. Yuza g‘adir – budurligiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
9. Metall yuza qatlamini plastik va elastik deformatsiyalanishini tushuntiring?
10. Yuza sifatini mashina detallarini ekspluatatsion xususiyatlariga ta’siri?
11. Mashinasozlik texnologiyasi fanini o‘rganish predmeti?
12. Mashinasozlik texnologiyasi fanini asosiy xususiyatlari?
13. Ishlab chiqarish jarayoni to‘g‘risida tushuncha?
14. Texnologik jarayon to‘g‘risiga tushuncha?
15. Texnologik jarayonni tarkibiy elementlari?
16. “Operatsiya” tushunchasini izohlang?
17. “O‘tish” tushunchasini izohlang?
18. “Yurish” tushunchasini izohlang?
19. Ish joyini izohlang?
20. “Holat” tushunchasini izohlang?
21. Seriyali ishlab chiqarish hususiyatlari?
22. Operatsiyani biriktirish koeffisienti orqali ishlab chiqarish turlarini aniqlash
23. Ommaviy ishlab chiqarish hususiyatlari?
24. Qanday belgilarga qarab ishlab chiqarish turlari ajratiladi?
25. Ishlab chiqarish turlari nechiga bo‘linadi?
26. Ommaviy ishlab chiqarish turlari?
27. Seriyali ishlab chiqarish turlari?
28. Detallar partiyasiga ishlov berishni tushuntiring?
29. “Takt” tushunchasini izohlang?
30. Yuza g‘adir-budurligi deb nima ataladi?
31. Asos chiziq, asos uzunlik, profilning o‘rtacha chizig‘i deb nimalar ataladi?
32. Profilning o‘rtacha arifmetik Ra deb nima ataladi?
33. Profil notekislarining o‘nta nuqtasi bo‘yicha aniqlangan balandiigi R_z deb nimaga ataladi?
34. Profil notekisliklarining eng katta balandiigi R_{max} deb nimaga ataladi?
35. Profil notekisliklarining o‘rtacha qadami S_m deb nima ataladi?
36. Mahalliy profil chiqiqlarining o‘rtacha qadami S deb nima ataladi?

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

37. Profil tayanch uzunligi η_p deb nima ataladi?
38. Profilning nisbiy tayanch uzunligi t_p deb nima ataladi?
39. Profil kesimining sathi p deb nim ataladi?
40. Ishlov berilgan yuza sifati qanday ko‘rsatkichlar bilan baxolanadi.
41. Ishlov berilgan yuzani makro- va mikrogeometriyasi.
42. Yuza g‘adir – budurligi tushunchasini izoxlang.
43. Yuza g‘adir – budurligiga ta’sir etuvchi omillar.
44. Nechta g‘adir – budurlik sinfi mavjud?
45. Ishlov berilgan yuzani fizik-mexanik xosalarini izoxlang.
46. Yuza sifatini yeyilishiga ta’siri?
47. Yuza sifatini mustahkamlikka tasiri?
48. Yuza sifatini korroziyaga tasiri?
49. Sovituvchi-moylovchi suyuqliklarni yuza sifatiga tasiri?
50. Kesish tartiblarini yuza g‘adir-budurligiga ta’siri?

2-Ma’ruza: Mexanik ishlov berish jarayonini loyihalash

Reja:

1. Texnologik jarayonni loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar va loyihalash ketma-ketligi.
2. Dastgohli operatsiyalarni tuzish.
3. Mexanik ishlov berish ketma-ketligi va texnologik vositalarni tanlash.
4. Mashinasozlikdagi texnik meyorlash, texnik asoslangan vaqt meyordari.

Tayanch so‘zlar: mexanik ishlov berish, loyihalash, yuza, dastgoh, texnik meyor, kesish, texnologik jarayon.

Texnologik jarayonni loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar va loyihalash ketma-ketligi.

Mexanik ishlov berish jarayonini loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar bo‘lib detalni ishchi chizmasi va ishlab chiqarish dasturi hisoblanadi. Ishchi chizmada detalni tasniflovchi barcha ko‘rsatmalar: kerakli sondagi proyeksiyasi o‘lchamlari; joizliklari, ishlov berilgan yuza g‘adir-budirliliklari, materjal markasi, materjal qattiqligi va termik ishlov berish usuli, bitta buyumdagagi detallar soni, detalni xizmat vazifasi talablari kabi ko‘rsatkichlar keltirilgan bo‘lishi kerak .

Yetarli darajada to‘la ishlanmagan ishchi chizma qator jiddiy nosozliklarni va nuqson detallar foizini oshishini keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun texnologik jarayonni loyihalashdan oldin ishchi chizmani yaxshilab o‘rganish, tahlil etish va agar kerak bo‘lsa berilgan detalni ishlov berish sharoitlariga aniqlik kiritish uchun konstruktor bilan kelishgan holda barcha kerakli o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Ishlab chiqarish dasturi, odatda vaqt birligida (yil, chorak, oy) talab qilingan mashinalar soni ko‘rinishida beriladi, bu dastur va mashinaning umumiyl chizmalari bo‘yicha berilgan sexda vaqt birligi ichida tayyorlanishi kerak bo‘lgan u yoki boshqa

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

nomdagi detallar sonini aniqlash mumkin. Bu ma’lumotlar, samaraliroq texnologik jarayonlarni, jihozlar turlarini, asboblar, texnologik ta’minot xajmini, mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish darajalarini tanlash uchun talab qilinadi. Masalan: agar tayyorlanadigan bir nomli detallar soni ko‘p bo‘lmasa, universal dastgohlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi va avtomatlashtirish darajasi kichik bo‘ladi. Agarda detallar soni ko‘p bo‘lsa maxsuslashtirilgan jihozlar, maxsus moslamalarga extiyoj bo‘ladi va alohida jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish uchun katta imkoniyat ochiladi. Shuningdek, tayyorlama va jihozlar to‘g‘risida ma’lumotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Texnologik jarayonni loyihalash uchun, asosan ommaviy ishlab chiqarishda detalni ishchi chizmasidan tashqari tayyorlamani ham chizmasi bo‘lishi kerak, u tayyorlama o‘rnataladigan va maxkamlanadigan moslamani konstruksiyalash va hisoblash uchun zarur.

Faqat tayyorlama shakli bo‘yicha oddiy bo‘lgan xollarda va kichik seriyali ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalashda berilgan tayyorlama uchun quyim o‘lchamlari to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar bilangina yoki tayyorlamani ma’lum turlari-quyma, bolg‘alash, prokat va bosim uchun qo‘yimlarni umumiyl jadvali bilangina cheklaniladi va tayyorlamani chizmasi berilmaydi.

To‘g‘ri ishlab chiqilgan texnologik jarayon, shuningdek, jihozlarni tasniflovchi ma’lumotlarga ham bog‘liq bo‘ladi, bu ma’lumotlar dastgoh pasportida beriladi. Masalan, tokarlik dastgohining pasportida quyidagi ma’lumotlar berilgan: markazlar balandiigi, markazlar orasidagi masofa, shpindelning aylanishlar chastotasi, motor quvvati, uzatishlar kattaliklari, shpindelning ruxsat etilgan burovchi momenti va boshqalar.

Tayyorlamani tashqi o‘lchamlarini bilgan holda va markazlar balandiigi, ular orasidagi masofa bo‘yicha, berilgan detalga ishlov berish uchun tegishili dastgohni tanlash mumkin. Mavjud korxona ishlab chiqarishda bor bo‘lgan jihozlardan foydalanish, ya’ni texnologik jarayon yangi jihozlarga mo‘ljallanmasdan korxonada mavjud bo‘lgan jihozlarga moslanishi kerak bo‘ladi.

Ammo yangi ishlab chiqarishni loyihalashda shuningdek alohida shartlar bo‘lishi mumkin. Korxona qurilishi navbatini hisobi bilan texnologik jarayonning loyihalashni olib borish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan asosiy dastlabki ma’lumotlardan tashqari, texnologik jarayonni to‘g‘ri loyihalash uchun, kesuvchi va o‘lchov asboblarning meyorlari, kesish tartibi bo‘yicha meyoriy ko‘rsatkichlar, yordamchi ish turlarining meyoriy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lish kerak, shuningdek tayyorlashga mo‘ljallanayotgan mashinani to‘la o‘rganish va xizmat vazifalarini yaxshi tushinish kerak bo‘ladi.

Texnologik jarayonlarning ishlab chiqish asosiga ikkita tamoyil qo‘yilgan: texnik va iqtisodiy. Texnik tamoyilga ko‘ra loyihalanayotgan texnologik jarayon berilgan buyumni tayyorlashda ishchi chizmani barcha talablarini va texnik shartlarini bajarilishini to‘la ta’minlashi kerak. Iqtisodiy tamoyilga ko‘ra tegishli holda buyumni tayyorlash minimal mehnat sarfi va ishlab chiqarishga foydasi bilan amalga oshirilishi kerak . Mexanik ishlov berishda texnologik jarayonlarni loyihalash-detal tayyorlash jarayonini kerakli texnik-iqtisodiy hisoblar bilan to‘la

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

tushuntirib berish va qabul qilingan varlantni asoslash maqsadiga ega. Texnologik xujjatlarni tuzish natijasida korxona muxandis-texnik xodimlari va ijrochi ishchilar loyihalangan texnologik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yo‘riqnomalar va kerakli ma’lumotlarni oladilar. Texnologik ishlanma buyum chiqarish uchun kerak bo‘lgan ishlab chiqarish vositalarini, mehnat xajmini va buyum tayyorlash tannarxini keltirib chiqarish imkonini beradi.

Texnologik jarayonlar individual, namunaviy va guruhlilarga bo‘linadilar. Individual texnologik jarayonlar o‘ziga xos bo‘lgan detallar uchun tuzilsa, namunaviy meyorlashtirilgan va standartlashtirilgan detallar uchun guruhlisi konstruktiv va texnologik o‘xshash detallar uchun tuziladi. Namunaviy texnologik jarayon tuzilishini birinchi bosqichida mashina detallarini sinflashtirish bajariladi, bunda detallar ularni tayyorlashda hosil bo‘ladigan umumiyligi texnologik vazifalarga ko‘ra quyidagi sinflarga bo‘linishlari mumkin: vallar, vtulkalar, disklar, plitalar, ustunlar, tishili g‘ildiraklar va hokazolar.

Keyingi bosqichda operatsiyalar namunaviy ketma-ketligi va mazmuni, namunaviy asoslash sxemalari va jihozlarni namunaviy konstruksiyalarini belgilash asosida tamoyilli umumiyligi texnologik jarayon ishlab chiqish amalga oshiriladi.

Texnologik jarayonlarni namunalashtirish ishlab berishni yangi ilg‘or usullarini joriy etishga, ishlab chiqarishni tayyorlash muddatlari va harajatlarini kamaytirishga, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish jihozlarini nisbatan keng qo‘llashga hamda tez qayta sozlanadigan namunaviy vositalarni ishlatishga sabab bo‘ladi.

Oqimli-ommaviy ishlab chiqarish, oqimli bo‘lmagan ishlab chiqarishlarga qaraganda texnik-iqtisodiy yutuqlarga ega. Oqimli ishlab chiqarishda eng yuqori ish unumdoorligiga va buyumning eng kichik tannarxiga erishiladi, ishlab chiqarish davri qisqaradi va ishlab chiqarish maydonidan foydalanish ortadi.

Seriyalab ishlab chiqarishda xar bir ish joyida bir qancha operatsiyalar bajariladi va bir operatsiyadan ikkinchisiga o‘tishda dastgochlarni sozlashdagi to‘xtab turishlarni keltirib chiqaradi. Ammo tegishli texnologik jarayonlarni qurib va kerakli tadbirlarni o‘tkazish orqali seriyalab ishlab chiqarishda oqimli ommaviy ishlab chiqarish tamoyillarini amalga oshirish mumkin. Bunga guruhli oqim tizimida bajariladigan guruhli texnologik jarayonlarni qo‘llab erishiladi.

Guruhli oqim tizimida jihozlar, tizimga biriktirilgan konstruksiyasi va o‘lchami bo‘yicha yaqin bo‘lgan bir necha nomdagagi detallarga ishlov berish yo‘nalishi bo‘yicha joylashtiriladi. Tizimga biriktirilgan barcha detallar davriy o‘tkaziladigan partiyalarda ishlov beriladi va xar bir belgilangan vaqtida tizim uzluksiz-oqimdagidek ishlaydi. Bir detalga ishlov berishdan boshqasiga tizimda sozlashlarsiz o‘tish mumkin. Boshqa xollarda qisman sozlashlar amalga oshiriladi.

Guruhdagi eng murakkab va mehnat xajmi katta detalga ko‘pincha majmuaviy detal deyiladi. Ishlov berish texnologik yo‘nalishi bo‘yicha to‘plamlashtiriladi va joylashtiriladi. Guruhdagi boshqa detallarga alohida o‘tishlar yoki operatsiyalarini o‘tkazib yuborish bilan ishlov berish mumkin. Guruhli oqim tizim, shu qatorda qayta sozlanuvchi hamda avtomatik bo‘lishi mumkin. Dastur bilan boshqariladigan

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

dastgohlardan foydalanishda, detallarni tanlash va vositani konstruksiyalash masalalari soddalashadi, dastgohni qayta sozlash vaqt minimumga keltiriladi.

Agar detallar guruhini tayyorlashda alohida operatsiyalarni bitta va shu dastgohni o‘zida bir turdagи sozlashda bajarish mumkin bo‘lsa, boshqa operatsiyalar turli xil dastgohlar talab qilsa va guruhli texnologik jarayon bo‘yicha bajarish mumkin bo‘lmasa unda umumiy operatsiyalarga guruhli sozlashni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Loyihalash jarayoni o‘zaro bog‘liq va ma’lum ketma-ketlikda bajariladigan bosqichlardan tashkil topadi. Ularga quyidagilar kiradi.

- ishlab chiqarish turi va ish usullarini aniqlash;
- texnologik jarayon tuziladigan detalni texnologiyabopligrini tahlil qilish;
- tayyorlamani olish usulini va unga qo‘yiladigan talablarni tanlash;
- texnologik asoslarni tanlash;
- alohida yuzalarga ishlov berishda ketma-ket bajariladigan usullarni (yo‘nalishni) tanlash;
- detalga to‘la ishlov berish yo‘nalishini tuzish;
- dastlabki operatsiyalarni belgilash;
- oraliq quyimlarni hisoblash;
- texnologik o‘tishlar bo‘yicha tayyorlamani texnologik joizliklarini va chegaraviy o‘lchamlarini belgilash;
- operatsiyalar tarkibiga va texnologik o‘tishlarning konsentratsiyalanish darajasiga aniqlik kiritish;
- jihoz, asbob va moslama tanlash;
- sozlanuvchi o‘lchamlarni aniqlash;
- moslamani konstruksiyalashda texnik vazifani ishlab chiqish uchun tayyorlamani o‘rnatish va mahkamlash sxemasiga aniqlik kiritish;
- ishchilarni malakasini va vaqt meyorini belgilash;
- texnik xujjalarni rasmiylashtirish.

Dastgohli operatsiyalarni tuzish

Mashinasozlik ishlab chiqarishida texnologik jarayonni ikkita tamoyil asosida loyihalash mumkin:

- operatsiyalarni konsentratsiyalash tamoyili;
- operatsiyalarni differenslallah tamoyili.


Konsentratsiyalash tamoyili dastgoh operatsiyani bitta yoki ko‘p sonli detallarni bir nechta yuzalariga bir yoki bir nechta asbob bilan ishlov berish bo‘yicha o‘tishlarni bitta operatsiyaga biriktirib qurish bilan tasniflanadi. Masalan: bitta dastgohda bir vaqtning o‘zida to‘rtta yuzalarga ishlov berish (2.1-rasm).

Shunday qilib bu tamoyilni asosiy maqsadi - operatsiyalarni bir operatsiyaga birlashtirish va vaqtlarini biriktirish hisobiga operatsiyaning umumiy sonini kamaytirishga qaratilgan.


Operatsiyalarni konsentratsiyalash tamoyili unumдорлиги yuqori bo‘lgan maxsus vazifali dastgohlarni, ya’ni aniq bir detalni bir nechta yuzasiga bir vaqt ni o‘zida ishlov berish uchun maxsus tayinlangan dastgohlarni qo‘llashni talab qiladi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Differenslallash tamoyili bitta yuzaga bir yoki bir qancha asboblar va ishchi yurishda ishlov beradigan dastgohli operatsiyalarni qurish bilan tasniflanadi.



2.1-rasm. Bir vaqt ni o‘zida bir qancha yuzalarga ishlov berish



2.2-rasm. Yuzalarga navbatma-navbat ishlov berish

Bu tamoyil bo‘yicha qurilgan texnologik jarayon nisbatan ko‘p sonli, lekin birligina ishlov berishdan tashkil topgan oddiy operatsiyalardan tuziladi, qo‘llaniladigan jihozlar oddiy.

Bu tamoyillarni yutuq va kamchiliklari:

-konsentratsiyalash tamoyilning asosiy yutug‘i - detal tayyorlashda ishchi vaqt sarfini kamaytirishdan iborat. Shuning uchun ham ommaviy ishlab chiqarish zavodiarida hamma vaqt operatsiyalarni konsentratsiyalash tamoyili bo‘yicha texnologik jarayonlarni qurishga intilish ko‘rinadi;

- Operatsiyalarni diferentsiatsiyalash tamoyilining asosiy yutug‘i sex yoki korhona ishlarini ishlab chiqarishni yangi obyektiga tez va oson o‘tkazish imkoniyatidan iborat. Chunki nisbatan oddiy dastgohlarni qayta sozlash murakkab dastgohlarga nisbatan oson va tez kechadi, undan tashqari katta ko‘lamdagi keng foydalaniladigan dastgohlardan foydalanish va kam maxoratli ishchilarni jalg qilish imkon bo‘ladi.

Operatsiyalarni diferensiyalash tamoyili mayda va oddiy detallarni juda qisqa vaqtida ishlov berish bilan tayyorlashda qo‘llash qulay. Agar velosiped ishlab chiqarish zavodiarida keng foydalaniladigan oddiy dastgohlar o‘rnatalgan bo‘lsa, bunday zavodiarda operatsiyalarni diferensiyalash tamoyili qo‘llaniladi. Texnologik jarayonlarni qurishda ikkala tamoyilni amalga oshirish uchun ko‘p o‘rinli va ko‘p asbobli operatsiya sxemalari qurilgan jihozlarni qo‘llash mumkin.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Mexanik ishlov berish ketma-ketligi va texnologik vositalarni tanlash

Mexanik ishlov berish usullari va ularni ketma-ketligi detalni konstruktiv shakli va o‘lchamlaridan aniqlanadi. Detallarni konstruktiv shakllari va o‘lchamlari haddan tashqari ko‘p bo‘lganligi uchun ham ishlov berish usullari va ularni ketma-ketligi ham shunchalik ko‘pqirrali bo‘ladi. Undan tashqari, bitta detalni o‘zi har xil ishlab chiqarish sharoitida turli texnologik jarayonlar bo‘yicha tayyorlanishi mumkin. Ishlov berish ketma-ketligini tanlashda birinchi navbatda o‘rnatuvchi asos yuzaga ahamiyat berish kerak, chunki detalga mexanik ishlov berish shu yuzadan boshlanadi.

Birinchi holatda kesish operatsiyasi texnologik jarayonni oxirida oshiriladigan bo‘lsa, ikkinchi holatda esa boshlanishida. Undan tashqari o‘rnatish yuzalari qo‘srimcha operatsiya kirtishni talab qilishi mumkin. Masalan keltirilgan holatda markaz teshiklar detalni tayyorlab bo‘lingandan keyin olib tashlanishi mumkin.

Umuman mexanik ishlov berish ketma-ketilagini tanlashda quyidagi asosiy yondoshuvlarga amal qilish kerak;

- pardozlash operatsiyalarini texnologik jarayonni oxiriga joylashtirish kerak;
- tayyorlashda nuqson paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan operatsiyalarini imkoniboricha texnologik jarayonni boshlanishiga ko‘chirish uchun harakat qilinishi kerak;
- teshiklarni parmalash hamma vaqt mexanik ishlov berishni oxirigi ko‘chiriladi, asosiy yuza vazifasini o‘tovchi teshiklar bundan mustasno;
- ishlov berish turlari bo‘yicha joylashgan sexlarda (masalan frezalash sexi, tokarlik sexi va boshqalar) detallarni tashish yo‘llarini uzayib ketishini oldini olish uchun ishlov berish turlari bo‘yicha operatsiyalar guruhanishi kerak. (tokarlik operatsiya, frezalash operatsiyasi va boshqalar). Texnologik jarayonni loyihalashda operatsiyani bajarish uchun kerak bo‘ladigan texnologik vositalar sifatida dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchov asboblarini tanlash kerak bo‘ladi. Ularning to‘g‘ri tanlanishi ish unumining oshishiga va ishlanayotgan yuza sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

Dastgoh tanlash. Dastgohni tayyorlamaning o‘lchamiga, talab qilinayotgan o‘lcham aniqligi va yuza silliqligiga, ish unumdorligiga qarab qabul qilinadi. So‘nggi va pardozlov operatsiyalari uchun dastgoh tanlanganda uning bikrligi, aniqligi va tezkorligi inobatga olinadi.

Dastgoh tanlash ishlab chiqarishning turiga bog‘liqdir. Donalab ishlab chiqarishda universal dastgohlar, seriyalab ishlab chiqarishda esa universal dastgohlar bilan bir qatorda yarimavtomatik va dastur yordamida boshqariladigan dastgohlar qo‘llaniladi. Ommaviy ishlab chiqarishda asosan ixtisoslashgan agregat va avtomatik dastgohlar qo‘llanadi. Dastgohni to‘g‘ri tanlanganini bildiruvchi asosiy ko‘rsatkich - dastgohdan foydalanish koeffitsientidir.

Moslama tanlash. Texnologik jarayonni bajarish uchun qanday moslamani tanlash asosan ishlab chiqarish turiga bog‘liq. Donalab va kichik seriyalab ishlab chiqarishda universal moslamalar (iskanja, qulochli, patron, bo‘lish kallagi va boshqalar) qo‘llaniladi. Seriyalab ishlab chiqarishda universal-sozlanuvchi (UNG) va universal-yig‘ma (USP) moslamalar, ko‘p seriyalik va ommaviy ishlab

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

chiqarishda esa asosan iqtisodiy jihatdan o‘rinli bo‘lgan maxsus moslamalar qo‘llaniladi.

Kesuvchi asbobni tanlash. Dastgoh tanlash bilan birga kesuvchi asboblari ham tayinlanadi. Tanlangan asbob ish unumdorligini oshishini, keraklik aniqlik va yuza silliqligini ta’minlashi kerak. Asosan standart va normallashgan asboblardan, juda kerak bo‘lganda esa maxsus asboblardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Kesuvchi asbobning materlali, tuzilishi va o‘lchamlari tayyorlanamaning materlaliga, operatsiyaning turiga, talab qilinayotgan aniqlik va silliqlikka bog‘liq. Kesuvchi asboblari kesuvchi tig‘ida asosan qattiq qotishma, tezkesar po‘lat, mineral-keramik materlallar va sintetik o‘ta qattiq materlallardan (olmos, elbor va boshqalar) ishlataladi.

O‘lchov asbobini tanlash. O‘lchov vositalari ishlab chiqarish korxonalarining turiga va keraklik o‘lcham aniqligiga qarab tayinlanadi. Donalab ishlab chiqarishda asosan universal o‘lchov asboblardan (shtangensirkul, mikrometrlar, indikator asboblari va boshqalar) foydalaniladi. Seriyalab va ommaviy ishlab chiqarishda kalibr va shablonlar, yuzalarning o‘zaro joylanishini tekshiruvchi moslamalar, hamda avtomatik o‘lchov vositalari qo‘llanadi.

Mashinasozlikdagi texnik meyorlash, texnik asoslangan vaqt meyorlari.

Alohibda operatsiyalarning vaqt meyorlarini aniqlash texnik meyorlash deyiladi.

Quyidagi meyorlarni belgilash majburiydir:

-ish unumdorligini uzlusiz oshirib borish va ishlab chiqarishni barcha vositalaridan samaraliroq foydalanish talabi;

-ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun ishonchli dastlabki ma’lumotlarni ta’minlash zarurati.

Berilgan ishlab chiqarish uchun eng qulay, ma’lum tashkiliy-texnik sharoitda texnologik operatsiyani bajarish uchun belgilangan vaqt texnik vaqt meyori deb ataladi. Texnikani zamona viy yutuqlariga tayanib, ishlab chiqarishni ilg‘or ish tajribalariga asoslanib, ish uslublarini qo‘llash sharoitida dastgoh, asbob va boshqa ishlab chiqarish vositalarini ishlatalish imkoniyati, vaqt meyoriga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Meyorlashni uchta usuli mavjud:

-tajribaviy – statistik;

-hisoblash – analitik;

-yig‘indi – tenglashtirish:

Tajribaviy-statistik usulda meyorlashda, vaqt meyori butun bir operatsiyaga uning elementlari bo‘yicha hisoblanmasdan, unga o‘xshash operatsiyani bajarishdagi haqiqiy vaqtini o‘rtacha sarfi to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarga asoslanib belgilanadi.

Bu usulni kamchiligi shundan iboratki, oldingi ish unumdorliklarda erishilgan yutuqlarga asoslangan va ilg‘or ish tajribalari hamda texnik yutuqlarini o‘zida aks ettirmaydi.

Hisoblash-analitik usulida meyorlashda, jihozning ishlatalish xususiyatlaridan unumli foydalanishda, operatsiya elementlarining davomiyligini hisoblash yo‘li bilan vaqt meyori aniqlanadi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Yig‘indi-tenglashtirish usuli bilan meyorlashda barcha operatsiya uchun yig‘indi vaqt meyori, meyorlashtirilishi kerak bo‘lgan operatsiyani, shunga o‘xshash operatsiyalarda, hisoblash – analitik usulida belgilangan vaqt meyoriga ega bo‘lgan boshqa o‘lchamdagи tayyorlamalarning ishlov berish operatsiyalari bilan taqqoslash yo‘li bilan belgilanadi. Bu usuldan taxminiy vaqt meyori bilan chegaralanishi mumkin bo‘lgan hollarda, sexlarni loyihalashda foydalanish mumkin.

Vaqt meyorini tarkibi. Operatsiya uchun vaqt meyori - donaviy va vaqt quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$T_{dona} = T_{op} + T_{tan} + T_{h.k.}$$

bu yerda; T_{op} - operativ vaqt; T_{tan} - tanaffus vaqt; $T_{h.k.}$ - xizmat ko‘rsatish vaqt.

Operativ vaqt T_a asosiy (texnologik) bilan T_e yordamchi vaqtlarni yig‘indisiga teng:

$$T_{op} = T_a + T_e$$

U har bir detalga ishlov berishda takrorlanishi bilan tasniflanadi. Asosiy (texnologik) vaqt tayyorlama va detalni o‘lchamini, shaklini, yuza qatlaming xususiyatini, materjalini tuzilishini yoki boshqa fizik-mexanik xosasini o‘zgarishiga yoki yig‘ish jarayonida ularning holatini o‘zgarishga sarflanadi.


Dastgohda ishlov berishda asosiy vaqt quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi.

$$T_a = \frac{L_x}{S}$$

bu erda; L_x - hisobdagи ishlov berish uzunligi (surish yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlama yoki asbobni yo‘li) mm.da; S - surish qiymati (surish tezligi), mm/min.

Berilgan formuladan foydalanib, har qanday ishlov berish usuli uchun T_a ni aniqlash mumkin. Masalan: yo‘nish uchun formula quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi (2.3-rasm).

$$T_A = \frac{L + (l_1 + l_2)}{n \cdot S} \text{ min } L_p = L + (l_1 + l_2); \\ n \cdot S = S \text{ mm/min}$$



2.3-rasm. Tokarli ishlov berishda asosiy vaqtini hisoblash sxemasi

L - ishlov berilayotgan yuza uzunligi, mm;

l_i - asbobni detalga nisbatan harakatlanishidagi urilishini yo‘qotish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha masofa, mm texnologik tizimni deformatsiyalanishi va kinematik zanjirdagi oraliq, o‘lchamlarni tebranishi natijasida urilish bo‘lish extimoli bo‘ladi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

l - asbobni chiqishi uchun harakatlanish masofasi, mm.

Asosiy vaqt mashinali va qo‘lli bo‘lishi mumkin. Agar barcha tayyorlama xususiyatidagi o‘zgarishlari inson ishtirokisiz jihoz yordamida amalga oshirilsa, asosiy vaqt mashinali deb ataladi.

Agar barcha ishlar jihozlarsiz qo‘lda bajarilsa asosiy vaqt qo‘lli deyiladi. Yordamchi vaqt detallarning o‘lchamlari va shakl o‘zgarishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lmagan har xil turdagи uslublarga sarflanadi. Bularga: detalni o‘rnatish va mahkamlash, ishlov berib bo‘lingandan so‘ng detalni bo‘shatib yechib olish, dastgojni yuritish va to‘xtatish, o‘lchovni amalga oshirish, asbobni keltirish va qaytarish va hokazo ishlar kiradi. Yordamchi vaqt asosiy mashinali vaqtini qoplaydigan va qoplasmaydigan vaqtarga bo‘linadi. Operativ vaqtga jihozni avtomatik ishslash vaqtida qo‘lli ish vaqt sarfi qo‘silmaydi, bundan kelib chiqadiki operativ vaqtga, faqat asosiy mashinali vaqtini qoplaydigan yordamchi vaqt qo‘siladi. Xizmat ko‘rsatish vaqtini $T_{x.k}$. asosan ikki qismga bo‘linadi – ish joyida texnik xizmat ko‘rsatish vaqtini va ish joyida tashkiliy xizmat ko‘rsatish vaqtini.

$$T_{h.k} = T_{tex.k} + T_{tash}.$$

Bu vaqtida har qaysi detalga ishlov berish takrorlanmaydi. Texnik xizmat ko‘rsatish vaqtini dastgoh – moslama – asbob – detal tizimini sozlashga, o‘tmaslashgan kesuvchi asbobni almashtirishga, asbobdan qirindilarni olishga va hokazolarga sarflanadi. Ish joyiga tashkiliy xizmat ko‘rsatish vaqtini jihozni tozalash va moylashga, dastgohdan qirindilarni olishga, ish joyini tartibga keltirishga va hokazolarga sarflanadi. Berilgan tayyorlama partiyasiga ishlov berishda tayyorlov – yakuniy vaqt $T_{o.k}$. sarflari amalga oshiriladi. Tayyorlov-yakuniy vaqt, tayyorlama partiyasiga ishlov berish uchun chizmalar va ishlar bilan tanishish, jihoz, moslama va asboblarni tayyorlash va sozlash, berilgan partiya bo‘yicha ish tugagandan keyin vositalarni yechish va topshirish hamda ishni topshirish uchun sarflanadi.

Tayyorlov – yakuniy vaqt, ish bajaradigan jihozlar, ish tasnifiga, sozlashni murakkablik darajasiga bog‘liq bo‘lib, partiya xajmiga bog‘liq bo‘lmaydi, shuning uchun ham partiyalab ish bajarishda, berilgan partiyaning aniqlanadigan vaqt meyori quyidagicha ifodalanadi:

$$T_{napm} = T_{ma} + T_g \cdot n$$

bu yerda: T_{ma} - tayyorlov-yakuniy vaqt meyori;

T_g - donabay vaqt meyori;

n - partiyadagi tayyorlamalar soni.

U holda kalkulyatsiyalangan vaqt meyori deb ataluvchi donaviy vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$T_k = T_g + \frac{T_{ma}}{n}$$

Texnik vaqt meyori doimo bir xil darajada turmaydi. Ishlab chiqarish jarayonining takomillashtirish, ishchi xodimlarni texnik – madaniyatini o‘sish miqdorida, texnik vaqt meyori kamayadi.

Nazorat savollari:

1. Mexanik ishlov berish texnologik jarayonini tuzish tartibi.
2. Texnologik jarayonni tuzishdagi boshlang‘ich ma’lumotlar.
3. Asoslarning birligi tushunchasi.
4. Dastgoh tanlashga ta’sir etuvchi omillar.
5. Moslama tanlashga ta’sir etuvchi omillar.
6. Kesuvchi va o‘lchov asboblarini tanlashga ta’sir etuvchi omillar.
7. Kesish tartiblarini aniqlash.
8. Vaqt meyorini hisoblash usullari.
9. Asosiy vaqt tushunchasi.
10. Donaviy vaqt tushunchasi.

3-Ma’ruza: Tarmoq mashinasozligida yangi innovatsion texnologik vositalar-metal qirquvchi dastgohlar, moslamalar, kesuvchi va o‘lchovchi asboblar.

Reja:

1. Metallarni kesib ishslash va dastgohlar.
2. Zamonaviy sonli dasturli boshqariladigan metall qirquvchi dastgohlar tuzilishi, asosiy ishchi qismlari va ishslash tamoillari.

Tayanch so‘zlar: metall, dastgoh, egov, shaber, keskich, parma, zenker, freza, arralar, abraziv, tokarlik dastgohi, yo‘nish.

Metallarni kesib ishslash va dastgohlar

Kesuvchi asboblarning turli-tumanligini turli hil materiallar, ishlov beriladigan detallarni shakllari va o‘lchamlarini har xilligi, metall qirquvchi dastgohlarni har xilligi hamda ishlab chiqarish xarakter (individual, seriyali yoki ommaviy)lari bilan izohlash mumkin.

Olimlarning ilmiy ishlari va ishlab chiqarish mutaxasislarining tajribalari shuni ko‘rsatadi, asbobni to‘g‘ri ishlatish mehnat unumдорligini oshirishda juda katta imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, yangi, ilg‘or ishlov berish usullarini, yangi kesuvchi asboblari va dastgohlarni qo‘llash ham shunday imkoniyatlar yaratadi.

Har qanday kesuvchi asbob detalni kerakli o‘lchamlari va shakllarini, talab etilayotgan ishlov beriladigan yuzani sifatini oshishini, hamda kerakli mustaxkamlik, bikrlik va xokazolarini ta’minlashlari kerak. Har qanday kesuvchi asbob (razvyortka, freza, protyajka, keskich yoki parma va hokazolar) tayyorlashdan ma’lum qalinliqdagi material qatlamin olib tashlashi kerak. Kesiladigan qatlam kattaligi har xil bo‘lishi mumkin. Katta tokarli dastgohida qiruvchi keskich 25 mmdan ortiq qatlamni kesadi, olmosli keskich 0,05 - 2 mm, razvyortka kichik teshikni razvyortkalaganda 0,1 - 0,15 mm qatlam kesadi. O‘lcham aniqligi va ishlov berilayotgan detal yuzasini g‘adir-budurligi turli xil bo‘lishi mumkin: parma yordamida ijozati 15 mm bo‘lgan 50 mqli teshik tashish mumkin; protyajka bilan

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

ijozati 0,1 mm bo‘lgan teshikka ishlov beriladi; qiruvchi keskich bilan ishlov berilgandan so‘ng yuza juda qo‘pol bo‘ladi, so‘ngra masalan olmosli keskich bilan o‘scha yuzaga ishlov berilganda yuqori sifatli, g‘adir-budurligi past ($S=0,32-0,16$ mkm) yuza olinadi.


Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki kesuvchi asbob ishlash sharoitlari va ularni ish natijalariga talablar har xil bo‘ladi. Kesuvchi asboblarni, birinchi navbatda dastgoh kesuvchi asboblarini ularni ish kinematikasi va konstruksiyasiga ko‘ra quyidagi asosiy turlarga bo‘lish qabul qilingan (2.1-rasm).

Egovlar

Turli xil shakldagi va kesimdagи ko‘p tig‘li metall qiruvchi asbob. U metallni kichik qatlamlarini olishga mo‘ljallangan. Egovlar asosan qo‘l asbobidir, ammo ba’zida aylanuvchan egovlar (borfrezalar) xam ishlatiladi. Bulardan har xil egovlar qo‘llaniladi. Buyumlarni egovlashda qanday egov qo‘llanilishiga qarab, egovlash aniqligi 0,5-0,01 mm chegarasida bo‘ladi.

Egovlarning klassifikasiysi. Egov profili va uzunligi turlicha bo‘lgan va toblangan po‘lat brusokdan (parchalardan) yasalgan kesuvchi asbob bo‘lib. Ishlaydigan yuziga tishlar kertilgan. Egov metall qatlamini shu tishlari bilan qirqib, qirindiga (qipiqla) o‘xshatib chiqaradi.

Maxsus egovlarga nojovkasimon, roma shaklidagi, oval shaklidagi oval qovurg‘ali yassi egovlar va brusovkalar kiradi. Egov tishlarining turlari. Egovlarning tishlari bir yo‘nalishda va bir-birini kesib o‘tadigan ikki yo‘nalishda kertiladi. Bir yo‘nalishda kertilgan egovlar miss, bronza, jez, babbit, allyuminiiy kabi yumshoq metallarni, shuningdek yog‘och, probka (pukak), charm va shunga o‘xshashlarni egovlash uchun qo‘llaniladi. Bir yo‘nalishda kertilgan tishlar egovning qovurg‘asiga nisbatan $70-80^\circ$ burchak hosil qiladi. Ikki yo‘nalishda kertilgan egovlarning birinchi kertilgan tishlari asosiy yoki pastki tish (kertik) deb, ikkinchisiga esa ustki tish (kertik) deb ataladi.



3.1-rasm. Egovlar tishlari.

Egovning kertilishi: 1-to‘g‘ri; 2-noto‘g‘ri


To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Ustki tishlarning soni pastki tishlar soniga qaraganda har sm joyda 1-2 tish ko‘prokdir. Tishlarning bir-birini kesishib o‘tgan chizig‘i egovning o‘qiga parallel bo‘lmay unga nisbatan biroz qiya joylashishi uchun shunday qilingan.

Egovlarning tishlari: 1) yirik; 2)mayda; 3)juda mayda qilib kertilgan bo‘ladi (3.2-rasm). Egov tishlarining turlicha kertilishi: 1-yirik tishli egov; 2-mayda tishli egov; 3-juda mayda tishli egov. Egovning uzunligi bo‘yicha har sm joyda 5-80 gacha tish bo‘ladi.

Egovlarning o‘lchamlariga, tishlarining shakliga va qanday kertilganiga qarab quyidagi nomlar bilan yuritiladi: 1) tumtoq uchli yassi dag‘al egov -250mm. 2) o‘tkir uchli, mayda tishli yassi egov 200mm 3) kvadrat shaklli dagal egov -250 mm va hakazo. Egovning o‘lchami kertilgan qismining uzunligiga qarab belgilanadi.

Juda ham mayda tishli egovlar mayin egov (barxatniy napilnik) deb ataladi va detallarning juda toza qilib egovlab pardozlashda qo‘llaniladi. Juda ham yirik tishli egovni brusovka deyiladi. Bu xil egov qalin metall qavatini olish (kirish) vaqtida qo‘llaniladi.



3.2-rasm. Brusovka (o‘ngda) va rashpil (chapda)

Egovlarning tishlari (3.2-rasm) arra-kertish dastgohlarida maxsus zubilo yordami bilan va frezalash hamda jilvirlash yo‘li bilan kertiladi: har qaysi usulda kertilgan tishning o‘ziga xos profili bo‘ladi. Egov tishlarining xillari

Shaber

to‘g‘rilash ishlari uchun qo‘l slesar asbobi. Qo‘l kuchi ostida shaber juda ingichka qirindini qiradi. Ishni osonlashtirish uchun uni qirralari katta radius bo‘yicha bajariladi va shuning uchun ular uni qavariqsimon ko‘rinishda bo‘ladi. Ba‘zi shaberlar pnevmatika yoki elektr yordamida ishlatiladi. (3-rasm.(a)).

Keskich

eng ko‘p tarqalgan tig‘li asbob va tokarli revolver, randalash va xokazo dastgohlarda qo‘llaniladi. Keski chlar xam oddiy, xam shakldor bo‘lishi mumkin (1.4-rasm (v)).

Parma

yaxlit materialda ikki harakat - asbobni o‘q atrofida aylanma va o‘q bo‘ylab ilgarilanma harakat hisobiga teshik ochishga mo‘ljallangan (3-rasm (e))


Zenker

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

asosan teshik diametrini kengaytirishga mo‘ljallangan asbob. Parmadan farqli o‘laroq ravishda zenker yaxlit materialda teshik ocha olmaydi, ammo teshik o‘qi yo‘nalishini to‘g‘rilashi mumkin (3-rasm (j))

Razvyortka

ko‘p tig‘li asbob va teshiklarga ishlov berishga mo‘ljallangan. Zenkerdan farqli ravishda razvyortka juda kichik qatlamni oladi, u o‘q yo‘nalishini tuzata olmaydi, ammo teshik shaklini tuzatadi (3.3-rasm (z))



3.3-rasm. Asosiy kesuvchi asboblar

Frezalar

ko‘p tig‘li, aylanma jism ko‘rinishidagi katta guruhdagi kesuvchi asboblar. Ularda tishlar aylanma jismni sirtida yoki yon tomonida bo‘ladi. Surish harakati yo‘nalishi doimo freza o‘qiga perpendikulyar bo‘ladi (3.3-rasm (i)).

Shever

tishli g‘ildiraklar tishlaridan kichik qatlamlarni yechishga mo‘ljallangan asbob. Shever yon tomonida kesuvchi qirralar tashqil etuvchi ariqchalar bo‘ladi. (3-rasm (k))

Chervyakli (chig‘iriqli) frezalar

obkatka usulida ishlovchi kesuvchi asbob. Ular turli xil tishli rildiraklar tayyorlashda qo‘llaniladi (3.3-rasm (l)).

Protyajka

ko‘p tig‘li kesuvchi asbob. Uni bo‘ylama harakatida tishlar oldinma ketin qirrindi yechiladi, chunki xar bir keyingi tish oldigisidan kichik kattalikka katta bo‘ladi (3-rasm (m)).

Arralar

materialni kesishgaga mo‘ljallangan asbob. Ular ko‘p tishli disk, lenta, zanjir va xokazo ko‘rinishda bo‘ladi (3.3-rasm (o)).

Abraziv asboblar

mayda abraziv donachalar (karbid, kremniy, koruid va xokazolar) kesuvchi qirralar sifatida ishlatiladi (3.3-rasm (p)).

ichki rezbalarni qirqishga mo‘ljallangan kesuvchi asboblar. Ular kesuvchi qirralarni tashqil etuvchi vinsimon ariqchalarga ega vint ko‘rinishida bo‘ladi (4-rasm (r)).

Plashkalar

tashqi rezbalarni qirqishga mo‘ljallangan kesuvchi asboblar. Ular kesuvchi qirralarni tashqil etuvchi qirralari bor yaxlit yoki kesilgan gayka ko‘rinishiga ega (4-rasm (s))

Dolbyaklar

tish dolbyojkalash dastgohlarida reykalar, silindrsimon tishli g‘ildirak va xokazolarni qirqishga mo‘ljallangan kesuvchi asbob. (3.4-rasm (u)).

Kombinatsiyalashgan asboblar

ishlov berishini osonlashtirish uchun ikki yoki undan ortiq turli xil yoki bir xil kesuvchi asboblar yig‘indisi (birikmasi).

Metchiklar


Kesuvchi asboblarni ko‘pincha, shuningdek ishlov beriladigan yuzalar turlariga kura ham klassifikasiyalanadi:

- *turli xil tashqi yuzalarga ishlov beruvchi asboblar* (yassi yuzalar, aylanma tashqi sirtlar, ariqchalar va xokazolar). Ularga keskichlar, frezalar, egovlar, jilvirtoshlar va xokazolar misol bo‘la olishi mumkin.

- *teshiklarga ishlov beruvchi asboblar*: parma, zenker, razvyortka, rastochkalash keskichi, protyajka, jilvirtoshlar va xokazolar.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

- rezba qirrquvchi asboblar- rezbali keskichlar, rezbali frezalar, metchik, plashka, rezba qirquvchi kallaklar, nakatkalash roliklari va xokazolar.
- materiallarni kesib tashlashga mo‘ljallangan asboblar-diskali arralar, pichoqlar, lentali yoki zanjirli arralar, ingichka abraziv va olmosli toshlar, kesuvchi keskichlar va xokazolar.
- tishli yuzalarga ishlov beruvchi asboblar - diskali modulli va barmoqli modulli frezalar, chervyakli tish qirquvchi frezalar, dolbyaklar, shever va xokazolar.



3.4-rasm.

Kesuvchi asboblarni asosiy qismlari. Har bir kesuvchi asboblar - keskich, parma, razvyortka, protyajka, egov yoki freza, ularni turli xil shakllariga qaramasdan, mo‘ljaliga ko‘ra o‘xshash qismlarga ega. Bu kesuvchi asboblar xar biri ishchi qismiga ega va unda bitta yoki bir nechta kesuvchi qirralar bo‘ladi, keskichda bitta, parmada ikkita, razvyortka yoki frezada ko‘plab kesuvchi qirralar bo‘ladi. Ko‘pchilik kesuvchi asboblar ishchi qismini ikkiga bo‘lish mumkin:

- kesuvchi, uni qismiga qirrindini yechish bo‘yicha asosiy ishni bajarish to‘g‘ri keladi;
- kalibrlovchi, u ishlov berilgan yuzani tozalash va ish davomida kesuvchi asboblar yo‘naltirishga mo‘ljallangan.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

Ishchi qism va kalibrlovchi qism parma, zenker, razvyortka, protyajkalarda bo‘ladi, keskich yoki frezada bunday bo‘linish bo‘lmaydi.

Axbobni ishchi qismi asosiy bo‘lib hisoblanadi, chunki kesish jarayoni unga bog‘liq bo‘ladi. U qirrindi kesadi.

Har qanday kesuvchi asboblarni ikkinchi qismi - qo‘shilgan (qisuvchi) qismidir. Uni vazifasi dastgohdan kelayotgan kuchni kesuvchi asboblar kesuvchi tig‘iga yetkazishdir. Keskichda qo‘shilgan qismi sterjendir (o‘zak), u dastgoh keskichushlagichida o‘rnatalidi, parma, zekner yoki razvertkada dum qismidir, o‘rnataladigan frezada-shponkali ariqcha, u yordamida kesuvchi asboblar opravkada joylashtiriladi. Bir xil kesuvchi asboblar, masalan, parma dumi konusli yoki silindrik bo‘lishi mumkin. Ammo qo‘shiladigan qismni shakllari xar xil bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Kesuvchi asboblarni, shuningdek ularda qo‘llaniladigan materiallarga ko‘ra bo‘linadilar:

- po‘latli, qirralari qattik qotishmadan - mineralokeramik, qirralari mineralokeramiqaan. Konstruksiyasiga ko‘ra quyidagi kesuvchi asboblar mavjud:
 - yaxlit (bitta tayerlamadan taylorlangan);
 - yig‘ma kesuvchi asboblar, unda uni qism va elementlari ajratilishi mumkin;
 - tashkiliy kesuvchi asboblar, unda uni qism va elementlarini ajratib bulmaydi;
 - plastinalari mexaniq qotirilgan kesuvchi asboblar (yig‘ma tig‘li kesuvchi asboblar)
- plastinkasi kavsharlangan;
- kleylangan;
- qotirilgan tig‘li (naplavka qilingan).

Zamonaviy sonli dasturli boshqariladigan metall qirquvchi dastgohlar tuzilishi, asosiy ishchi qismlari va ishlash tamoillari

Xozirda barcha zamonaviy mashinasozlik korxonalarida zamonaviy sonli dasturli boshqariladigan dastgohlar qo‘llanilib kelinmoqda.

16K20F3 modelli tokarlik dastgohi.

Bu dastgoh SDB tokarlik dastgohlari ichida eng ko‘p tarkalgan bo‘lib, pogonali va turli murakkablikdagi egri chiziqli profilga ega bo‘lgan tashqissilindrishimon sirtlar ishlash uchun xamda bittalab, kam seriyalab, seriyalab ishlab chiqarish sharoitida rezba qirqish uchun muljallangan. BD standart kodlardan birida perfolentaga ezib olinadi. Dastgoh II klass aniqligida. Dastgohning SDBK supportning ikkita koordinata bo‘ylab surilishini, shpindel tezligining avtomatik almashlab ulanishini, asboblar kallaksining oltita pozitsiyadan istagan birida indeksatsiyalanishi, shuningdek yordamchi komandalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Dastgoh SDBK ning «Kontur 2PT-71» (dastgohning 16K20F3S1 modeli), «Elektronika NS-31» (dastgohning 16K20T1 modeli) va boshka modellari bilan jixozlanadi.

16K20T1 modelli tokarlik dastgohi.

Konstruksiyasiga ko‘ra bu dastgoh 16K20F3 modelli dastgohka o‘xhash, lekin u ikki koordinatali konturli operativ «Elektronika NS-31» modelli SDBK bilan

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

jixozlangan bo‘lib, chiziqli-doiraviy interpolyasiyanı ta’minlaydi. Ijrochi organlarning surilishi xam absolyut, xam nisbiy koordinatalar tizimida amalga oshadi. SDBK ning diskretligi Z o‘ki bo‘ylab 0,01 mm/imp ga xamda X o‘ki bo‘ylab 0,005 mm/imp ga teng. Surish tezligi 0,01-20,47 mm/ayl; tez surishlar tezligi X o‘ki buyicha 5 m/min ni va Z o‘ki bo‘yicha 7,5 m/min ni tashkil etadi.

SDBK ning «Elektronika NS-31» modeli BD ni kiritish va operator pulning klaviaturasi yordamida taxrir qilish, shuningdek BD ni operativ xotirada saklash va tashqi xotirada uzok muddat saklash imkonini beradi. Tashqi xotira kassetasi (TXK) kurinishida yasalgan bo‘lib, dasturlarni dastgohdan tashqarida saklash uchun muljallangan. Pultda terilgan istalgan BD, zarur bo‘lsa, TXK ga yozilishi mumkin. TXK da saklanadigan BD ni dastgohda bajarish uchun mazkur BD ni avval SDBK ning operativ xotirasiga yozish lozim.

BD kadrlarini terishda komandalarning quyidagi adreslaridan foydalilanadi: № - kadr nomeri; X – keskichning ko‘ndalang surilishi; Z – keskichning bo‘ylama surilishi; R – ko‘sishma geometrik parametrlar; S – shpindelning aylanish chastotasi; T – burilma keskichning pozitsiyasini tanlashga komanda; F – rezbaning surilishi yoki qadami; G – tayyorlov funksiyasi; M – yordamchi funksiY.

16K20F3S5 modelli tokarlik dastgohi.

SDBK ning N22-1M modeli bilan jixozlangan bu dastgoh xozirgi vaqtda keng tarqalgan. Dastgohni unda joylashgan pultdan xam, SDBK pultidan xam boshqarish mumkin.



3.5- rasm. Tokarli SDB dastgohini a) umumiyoq ko‘rinishi, b) sxemasi .

SDB konsolli 6R13F3 modeli vertikal-frezalash dastgohi vazifasi va konstruktiv xususiyatlari.

SDB frezalash dastgohlari oddiy shaklli plankalar, richaglar, kopkoklar, korpuslar va kronshteynlarning sirtlarini, kulachok, andaza kabi murakkab shaklli

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

konturlarni, korpus detallarning sirtlarini frezalash uchun muljallangan. Frezalash dastgohlarining texnologik imkoniyatlari dastgohning konstruksiyasi, komponovkasi, aniqlik klassi va SDB tizimining texnik xarakteristikasi bilan belgilanadi. Frezalash dastgohlaridassilindrsimon, uchli va shakldor frezalar bilan frezalash, keskichlar bilan yo‘nib kengaytirish, parmalash, zenkerlash va razvyortkalash mumkin.


Komponovkasiga ko‘ra dastgohlar konsolli-frezalash, konsolsiz, bo‘ylama-frezalash dastgohlariga bo‘linadi. Dastgohning shpindellari vertikal va gorizontal joylashgan; asbobi qulda va avtomatik yo‘sinda almashtiriladigan; bir va ko‘p shpindelli; uch va undan ko‘p koordinatalari boshkariladigan xillari ishlab chikariladi.

Konsol-frezalash dastgohlarining o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, eni 200, 250, 320 va 400 mm bo‘lgan stoli uchta koordinata o‘klari (X, U, Z) bo‘ylab suriladi; bu dastgohlar o‘lchamlari uncha katta bo‘lmagan detallar ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, N va P aniqlik klasslarida ishlab chiqariladi.

Konsolsiz dastgohlarning eni 250, 400 va 630 mm bo‘lgan stoli gorizontal tekislikda, frezalash kallaksi esa vertikal tekislikda suriladi. Stolning eni 400-5000 mm bo‘lgan bo‘ylama-frezalash dastgohlarining qo‘zalmas yoki qo‘zgaluvchan yondorda suriladigan gorizontal eki vertikal polzunchali babbasi bo‘lgan bir ustunli va qo‘zgaluvchan eki qo‘zgalmas yondori bo‘lgan ikki ustunli xillari ishlab chiqariladi.

Xozirgi zamon frezalash dastgohlari chiziqli-doiraviy interpolyasiyalash imkonini beradigan konturli SDBK bilan (N33-1M, N33-2M, N55-1 va boshka modellari) jixozlanadi.

6R13F3 modelli dastgohning asosiy uzellariga (6-rasm) stanina, tezliklar kutisi, shpindel kallagi, konsol, salazkali stol, reduktor kiradi.



3.6-rasm. 613F3 modelli frezalash dastgohning umumiy kurinishi.

Bikr konstruksiyali stanina 7 da vertikal yo‘naltiruvchilar bo‘lib, ular bo‘ylab konsol 2 suriladi. Staninaning chap tomonidagi tokchasiga shpindelning aylanish chastotasini o‘zgartirish imkonini beradigan kurilmali tezliklar kutisi montaj qilingan. Aylanish chastotasi faqat qulda uzgartiriladi. Buning uchun qutidagi dasta

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

pazdan chikkuncha pastga tushiriladi va oxirigacha o‘zimizdan nariga itariladi; limbni burib shpindelning kerakli aylanish chastotasi o‘rnataladi (fiksatorning shikillashi limb mazkur xolatda qotirib qo‘yilganligini bildiradi); «Itarish» («Tolchok») knopkasini bosib dasta oxista boshlangich xolatga qaytariladi. Dastgoh ishlab turganda shpindelning aylanish chastotasini o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi. Dasta qayd qilingan xolatga o‘rnatalgandan keyingina tezliklar kutisi ishlashi mumkin. Stanina ichida moy rezervuari bor. Tezliklar kutisining podshipniklari va shesternyalari uning ichida joylashgan plunjjerli nasosdan moylanadi. Moy nasosi va tezliklar kutisiga ko‘lni olib borish uchun stanicada darcha qilingan.

Shpindel kallaksi 5 tarkibiga salazkalar, reduktor, shpindel 6 li polzun, polzunni harakatlantiruvchi yuritma kiradi.

Dastgohda stol 8 ni bo‘ylama yo‘nalishda va salazka 3 ni (stol 8 bilan birga) ko‘ndalang yo‘nalishda harakatlantiruvchi yuritmalar bor. Dastgoh gidrostansiya 1 va SDBK 4 bilan jixozlangan.

SDB parmalash-yo‘nib kengaytirish dastgohlarining vazifasi, turlari va konstruktiv xususiyatlari

SDB parmalash va yo‘nib kengaytirish dastgohlari turli materiallardan yasalgan detallarda rejalamasdan xamda konduktorsiz, parmallar, zenkerlar, razvertkalar, yo‘nib kengaytirish asboblari va boshka asboblar bilan teshiklar ishlash uchun muljallangan.

SDB parmalash dastgohlari vertikal-parmalash (diametri 12-50 mm bo‘lgan teshiklar ishlash uchun) va radial-parmalash (yirik tayyorlamalarga ishlov berish uchun) dastgohlariga bo‘linadi.

SDB parmalash dastgohlarining bikrili va aniqligi yuqori bo‘ladi; ijrochi organlarining pozitsiyalash aniqligi $\pm(0,025-0,05)$ mm; boshqariladigan koordinatalarining soni 3 ta, shu jumladan, bir yo‘la boshqariladiganlarining soni 2 ta; beriladigan surishlar diskretligi 0,01 mm. SDB parmalash dastgohlarining xochsimon (krestsimon) stollari dumalash tayanchlariga o‘rnataladi; salazka va stol dumalash vinti va gaykasidan (vint-gayka) iborat uzatma yordamida suriladi; stollarni harakatlantirish uchun yo‘uzgarmas tok elektr dvigatellaridan, yoki burovchi momentni gidrokuchaytirgichi bo‘lgan qadamli dvigatellardan foydalilaniladi. Bosh yuritma bir yoki ikki tezlikli asinxron elektr dvigateldan va tezliklar kutisidan tashkil topgan. Dastgohlar burilma stollar va rezba qirqadigan patronlar bilan jixozlanadi.

SDB yo‘nib kengaytirish dastgohlari gorizontal-yo‘nib kengaytirish va koordinatali-yo‘nib kengaytirish dastgohlariga bo‘linadi. Gorizontal-yo‘nib kengaytirish dastgohlari ichida ketingi ustunlari yo‘k xamda burilma stolli xillari keng tarqalgan. Bu dastgohlarga ijrochi organlarini pozitsiyalash aniqligi yukori; tayyorlamalarga ikki tomonlama ishlov berish mumkin (stolni 180° burib ko‘yib); o‘kdosh teshiklarga ishlov berishda yukori unumidorlikni ta’minlaydi; tayyorlamaning to‘rtala tomonidan o‘zaro perpendikulyar va kiya teshiklarga ishlov berish imkonini beradi. Dastgohlar diametri 65-320 mm bo‘lgan surilma shpindel bilan jixozlangan. SDB yo‘nib kengaytirish dastgohlarida teshiklarga uzil-kesil

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

ishlov berish uchun razvertkalardan (yo‘nib kengaytirish opravkalari o‘rniga) foydalilanadi, bu esa ishlov berishning aniqligi va sifatini oshiradi xamda asbobni o‘lchamga sozlashni talab qilmaydi. SDB yo‘nib-kengaytirish dastgohlarida odatda toblangan dumalash yo‘naltiruvchilar qo‘llaniladi. Bunday yo‘naltiruvchilar ishkalanish kuchi kichik va barkaror bo‘lishini, shuningdek, ijrochi organlarning boshlangich to‘g‘ri chiziqli surilish aniqligi uzok muddat saklanishini ta’minlaydi. Dastgohning bikrligini oshirish uchun, ishlov berish jarayonida kuzgalmaydigan ijrochi organlar yo‘naltiruvchilarda maxsus kiskichlar bilan xam kotirib qo‘yiladi. SDB yo‘nib kengaytirish dastgohlarining aniqligi P va V klasslarga to‘g‘ri keladi. Bosh (asosiy) harakat yuritmasi sifatida asosan tezliklar kutisi va rostlanadigan o‘zgarmas tok dvigateli, kam xollarda esa mexanik variator yoki kup pogonali tezliklar kutisi bilan asinxron dvigatel qo‘llaniladi. Surish yuritmasi rostlanadigan o‘zgarmas tok dvigatelidan yoki yukori momentli elektr dvigateldan iboratdir.

Yo‘nib kengaytirish dastgohlarining SDB tizimlari ish va yordamchi harakatlarni to‘g‘ri burchaklissikl bo‘yicha xam, koordinata o‘klariga nisbatan 45° burchak ostida xam dasturlashtirish imkonini beradi. SDBK yordamchi surishlarni yukori tezlikda (5 m/min gacha) bajarishni ta’minlaydi; boshkarish panelidan asbobning xolatini o‘zgartirish, surishga tuzatish kiritish, berilgan qiymatlarni qo‘lda kiritish rejimda boshkarish imkonini beradi. Ijrochi organning kerakli xolatga chikishida surish yuritmasining pogonali yoki ravon tormozlanishi ijrochi organning $\pm 0,01$ mm aniqlikda pozitsiyalanishi ta’minlaydi SDBK pultida quyidagi parametrlar indikatsiyalanadi: ijrochi organning xar ondagи xolatining koordinatalari; kadr nomeri; ishlayotgan asbobning nomeri. Yo‘nib kengaytirish dastgohlarining shpindeli gorizontal joylashgan 2611F2, 2A622F2, 2A620F2-1 modellari ko‘p tarqalgan.

2450AF2, 2E450AF1, 2D450AF2 va boshka modeldagи koordinatali-yo‘nib kengaytirish dastgohlarining shpindellari vertikal joylashgan; bu dastgohlar ijrochi organlarni 0,001 mm aniqlikda pozitsiyalashni ta’minlaydi.

Ko‘p vazifali dastgohlar.

Ko‘p vazifali dastgohlar (KVD) SDBK va asboblarni avtomatik tarzda almashtiradigan kurilma bilan jixozlangan xamda bir o‘rnatishda korpus detallar xamda aylanma jismlar tipidagi detallarga kompleks ishlov berish uchun mo‘ljallangan. KVD larning ushbu xillari ishlab chiqariladi: 1) bir shpindelli va ko‘p pozitsiyali asboblar magazini (12-120 ta asbob sigadigan) bo‘lgan dastgohlar, shpindelda asbob 5-6 s ichida avtomatik (dastur bo‘yicha) almashadi; 2) asbob 2-3 s vaqt ichida revolver kallakni aylantirib almashtiriladigan revolver kallakli dastgohlar (asboblar soni 5-8 ta bo‘ladi); 3) kesish jarayonida revolver kallakning ishlamaydigan shpindellarida asboblarni almashtirish imkonini beradigan revolver kallaksi va asboblar magazini bo‘lgan dastgohlar.


Ishlov berishssiklida yordamchi vaqtini keskin kamaytirib, shussiklda mashina vaqtini 60-75% gacha oshirish mumkin bo‘lganligidan KVD larning ish unumi universal dastgohlarnikidan 4-10 marta ortik. Bu dastgohlarda asboblarning avtomatik almashishi; yordamchi yurishlarda ijrochi organlarning surilish tezligi kattaligi (20 m/min gacha); asbobning dastgohdan tashkarida o‘lchamga sozlanishi;

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

tekshirish operatsiyalarining yo‘kligi va shu kabilar hisobiga yordamchi vaqt qiskargan. Xozirgi zamон KVD da asboblari oldindan kerakli o‘lchamga sozlangan almashinuvchan asboblar magazinidan foydalaniladi, bu esa dastgohni qayta sozlashga sarflanadigan vaqtни qisqartiradi.

KVD da parmalash, parmalab kengaytirish, razvertkalash, rezba qirqish, yo‘nib kengaytirish, frezalash va boshka ishlarni bajarish mumkin. Odatta KVD da detallarga uzil-kesil ishlov beriladi. KVD larning aniqlik katori koordinatali-yo‘nib kengaytirish dastgohlarining aniqligiga to‘g‘ri keladi: yo‘nib kengaytirilgan keyin teshiklarning aniqligi 6-7 – kvalitetga, ishlov berilgan sirtning gadir-budurligi $Ra=1\div2 \text{ mkm}$ ga teng. KVD lar avtomatik rejimda bir o‘rnatishda murakkab korpus detallarning barcha tomonlariga (tayyorlamani maxkamlash uchun foydalaniladigan baza sirtidan boshka) ishlov berish imkonini beradi. Buning uchun KVD vertikal va gorizontal tekislikda burila oladigan stol bilan jixozlanadi. Shpindel o‘kini dasturga muvofik dastgoh stoli yuzasiga nisbatan gorizontal, vertikal yoki istalgan kiyalikda o‘rnatish mumkin bo‘lgan KVD larning konstruksiyalari mavjud. KVD lar tayyorlamani o‘rnatish va maxkamlash uchun yo‘ldosh-moslamalar (YM), shuningdek YM larni avtomatik almashtiradigan kurilmalar bilan jixozlanishi mumkin. KVD larning vertikal va gorizontal komponovkali xillari ishlab chikariladi. Vertikal komponovkali KVD tayyorlamaning bir tomoniga ishlov berish uchun, ko‘p pozitsiyali va burilma moslamalar bulganida esa bir necha tomoniga ishlov berish uchun mo‘ljallangan.

Ko‘p vazifali vertikal dastgohining 225VMF4 modeli (3.7-rasm) dastgoh yonidagi alohida ustunda joylashgan asboblar magazini 3 (30 ta asbob sigadi) bilan jixozlangan. Asbobni avtooperator 2 almashtiradi.



3.7-rasm. Ko‘p vazifali tokarlik dastgohining 16A90MF4 modeli:

1,5 – salazkalar; 2,6 – shpindel babbalari; 3 – patron;

4 – ustun; 7 – asbob o‘rnatiladigan shpindel.

Shpindel 4 o‘rnatilgan babka 5 vertikaliga (Z o‘qi bo‘ylab), xochsimon stol 1 esa gorizontal tekislikda (X va U o‘klari bo‘ylab) suriladi. Bosh harakat va surish yuritmasi sifatida aylanish chastotasi keng diapazonda rostlanadigan o‘zgarmas tok elektr dvigatellari ishlatiladi. Dastgohning ijrochi organlari dumalash vinti va

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

gaykasi (vint-gayka) dan iborat uzatma yordamida rolikli yo‘naltiruvchilarda suriladi; ular 0,012 mm aniqlikda pozitsiyalanadi.

Gorizontal KVD lar tayyorlamalarga to‘rt, ba’zan besh tomonidan ishlov berish uchun mo‘ljallangan. Besh tomonidan ishlov beradigan dastgohlar shpindel kallaklari vertikal va gorizontal o‘klar atrofida burila oladi. Xochsimon burilma stoli va vertikal yo‘nalishda suriladigan shpindel babkasi bo‘lgan gorizontal komponovkali KVD lar ko‘prok tarkalgan.

Tokarlik-parmalash va tokarlik-parmalash-frezalash KVD lari aylanma jism tipidagi detallarga kompleks ishlov berish (yo‘nish, frezalash, parmalash, parmalab kengaytirish, yo‘nib kengaytirish va xokazo) uchun mo‘ljallangan.



3.8-rasm Gorizontal vazifali dastgoh – model GDF630.

Ko‘p vazifali tokarlik dastgohining 16A90MF4 modeli (rasm) diametri 800 mm gacha, uzunligi 250 mm gacha, massasi 600 kg gacha bo‘lgan korpus detallar ishlashga mo‘ljallangan. Tayerlama salazkalar 1 ga o‘rnatilgan shpindel babkasi 2 da joylashgan shpindel aylantiradigan patron 3 ga o‘rnatiladi. Shpindel aylanma harakatdan tashkari, tayyorlama bilan birga doiraviy surilishi xam mumkin; bunday harakat, masalan, egri chizikli pazlar ishlashda zarur bo‘ladi. asbob o‘rnatiladigan shpindel 7 shpindel babkasi 6 korpusiga montaj kilingan. Bu shpindelga 32 pozitsiyali magazindan avtomatik yo‘sinda asboblar uzatilib turadi. Shpindel babkasi 6 salazka 5 bilan birga ustun 4 (U o‘ki) bo‘ylab yuqoriga-pastga suriladi, gorizontal tekislikda ustun (Z uki) bilan birga va ko‘shimcha ravishda salazkalar (W o‘ki) da suriladi. Dastgohda asbob o‘rnatiladiga yana bir shpindel 6 bor. Shpindellar 6 va 7 asbobning 10-2000 ayl/min chastota bilan, tayyorlama shpindeli esa tayyorlamaning 6,3-3800 ayl/min chastota bilan aylanishini ta’minlaydi. Ana shu shpindellar KVD da barcha tokarlik ishlarini (shu jumladan, rezba nakatlash ishlarini), shuningdek parmalash, yo‘nib kengaytirish, frezalash ishlarini bajarish imkonini beradi.

Ma’lum tip-o‘lchamli tayyorlamalarga ishlov berish uchun mo‘ljallangan maxsus KVD lar xam ishlab chiqariladi. KVD ni loyihalashda agregatlash

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

prinsipidan keng foydalaniladi. KVD lar P va V aniqlik klasslarida ishlab chiqariladi.

KVD quyidagi xususiyatlarga ega bulgan SDB tizimlari bilan jixozlanadi: BD ning xajmi katta; boshkariladigan koordinatalar soni ko‘p (7-8 tagacha); dastgohning ijorchi organlarini yuqori aniqlikda (0,005-0,01 mm) pozitsiyalash imkonini bor; shpindelning aylanish chastotasini va surish tezligini keng diapazonda rostlash mumkin; ishdagi ishonchliliqi yuqori; avtomatik rejimda xam, yuqori darajadagi EXM bilan boshkarish rejimda ishlay oladi. KVD lar CNC tipidagi pozitsion, konturli va ko‘pincha pozitsion-konturli SDBK bilan jixozlanadi, ular esa odatda TAD bilan boglangan bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Metallarni kesib ishlash va dastgohlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Kesuvchi asboblar va ularning turlari
3. Asbobsozlik materiallar, kimyoviy tarkibi, turlari, xususiyatlari, qo‘llanilish doirasi.
4. Egov tishlarining turlarini tavsiflang.
5. Kesuvchi asboblarni asosiy qismlari nimalardan iborat?
6. Sonli dasturli boshqariladigan dastgohlarni avzallikkleri.
7. Zamonaviy sonli-dasturli boshqariladigan metall qirquvchi dastgohlarga misollar keltiring.
8. Vertikal-frezalash dastgohi vazifasi va konstruktiv xususiyatlarini tushuntiring.
9. Kombinatsiyalashgan asboblarga misollar keltiring.
10. Ko‘p vazifali tokarlik dastgohlarining turlari va afzallikkleri.

1-AMALIY ISH

Mavzu: CHPU 4 dastgohi uchun mexanik foydalanish dasturini tuzish.

Ishning maqsadi: CHPU bilan dasturlarni tuzishda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan iborat.

Ishning bayoni

CHPU dastgohlarini dasturlash (raqamli boshqariladigan dastgohlar) - bu mashinani boshqaruvchi kontrollerlar uchun dasturiy ko‘rsatmalar yaratish. CHPU dastgohlari sanoat avtomatizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, samaradorlik va rentabellikni oshiradi. Ushbu maqola sizga CHPU nima yekanligini, CHPU mashinalarining qaysi turlari borligi, CHPU mashinalari uchun dasturlarni qanday tuzish va yozish haqida ma’lumot beradi.




CHPU ni qayta ishslash har xil o‘lchamdagи tarmoqlarda qo‘llaniladi - kichik ustaxonalardan tortib yirik sanoat ishlab chiqaruvchilarigacha.

“CHPU”, “raqamli boshqaruv” degan ma’noni anglatadi va CHPU ishlov berish ta’rifi, bu odatda ishlov beriladigan qismdan materialni olib tashlash uchun kompyuterlashtirilgan boshqaruv va mashinalardan foydalanadigan ishlab chiqarish jarayoni yekanligiga asoslanadi. Ushbu jarayon turli xil materiallar, jumladan, metall, plastmassa, yog‘och, shisha, ko‘pik va kompozitsiyalar uchun javob beradi va turli sohalarda qo‘llanilishini topadi.

Agar biz CHPU -mashinaning o‘zi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu ma’lum bir dastur tomonidan boshqariladigan va operatorning ishtiokisiz avtonom harakatlarni bajaradigan qismlarni qayta ishslash yoki yaratish uchun har qanday mashina; shular jumlasidadir, ammo ularning nomini hisobga olmaganda: CHPU frezalash dastgohlari, CHPU torna dastgohlari, lazer o‘ymakorlari va to‘sarlari, ko‘p funksiyali ishlov berish markazlari, YEDM dastgohlari, abraziv chiqib ketish mashinalari, har qanday turdagи 3D printerlar ham CHPU dastgohlari olib tashlash jarayoniga yemas, balki qo‘shimchadan foydalaning; materialni olib tashlash va

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar


qo‘sishish jarayonlarini birlashtiradigan qurilmalar ham mavjud (MFPlar ko‘p funksiyali qurilmalar, odatda CHPU routerining gibridi va 3D printer).



Beshta yeksa CHPU yo‘riqnomasi

CHPU ni qayta ishlash kabi subtaktiv ishlab chiqarish jarayonlari, 3D bosib chiqarish yoki qarshi kaliplama va shtamplama kabi kaliplama ishlab chiqarish jarayonlari kabi qo‘sishimcha ishlab chiqarish jarayonlaridan farq qiladi.

CHPU mashinalari uchun dasturlar qanday yoziladi



Chiqarish jarayonlari kerakli shakl va tuzilmalarni yaratish uchun ishlov beriladigan materialning bir qismini olib tashlasa, qo‘sishimcha jarayonlar material qo‘sadi va shakllanish jarayonlari uning hajmini o‘zgartirmasdan o‘zgartiradi. CHPU dastgohlarida avtomatlashtirilgan ishlov berish yuqori aniqlikdagi qismlarni ishlab chiqarishga imkon beradi va bitta va o‘rta ishlab chiqarish hajmlari uchun iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. CHPU ni qayta ishlash boshqa ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan ma’lum afzalliklarga yega bo‘lishiga qaramay, olingan

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar


qismlarning murakkabligi darajasi va uning doirasida iqtisodiy samaradorligi cheklangan.

Ilgari, CHPU dastgohlarini dasturlash uchun zimbali lentalar, perkartalar va boshqaruv blokiga operatsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish ishlatalgan. Hozirgi kunda boshqaruv dasturi odatda oldindan, maxsus dasturiy ta’minotda tuziladi yoki ko‘chma saqlash vositasi (masalan, USB-stik) yordamida mashinaga uzatiladi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonaning ichki tarmog‘i orqali uzatiladi.

CHPU mashinalari uchun dasturni ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- SAPR modelini ishlab chiqish
- SAPR faylini CNC dasturiga aylantirish
- CHPU apparati tayyorlash
- Qayta ishslash operatsiyasini bajarish

SAPR modellari




Qayta ishslash jarayoni dasturiy ta’minotda qismning raqamli modelini yaratish bilan boshlanadi. SAPR dasturi dizaynerlar va ishlab chiqaruvchilarga keyinchalik ishlab chiqarish uchun o‘lchamlari va geometriyasi kabi kerakli ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda o‘z qismlari va mahsulotlarini modellashtirishga imkon beradi.

Qismning o‘lchamlari va geometriyasi mashina va asbobning imkoniyatlari bilan cheklangan. Bundan tashqari, ishlov beriladigan materialning xususiyatlari, asbobning dizayni va uning xususiyatlari, shuningdek, qismning minimal qalinligi, qismning maksimal hajmi, shuningdek ichki bo‘shliqlar va xususiyatlarning murakkabligi kabi majburiy qiymatlarni kiritish orqali dizayn imkoniyatlarini cheklaydi.

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

SAPR dizayni bajarilgandan so‘ng, dizayner modelni dastgoh moslamasiga mos keladigan fayl formatiga yekspert qiladi.

SAPR fayllarini aylantirish




Formatlangan fayl CHPU dasturi orqali uzatiladi, unda model mashinaning boshqaruv kodiga aylantiriladi.

CHPU mashinalarida G-kod, M-kod va boshqalar kabi bir nechta bajariladigan kod formatlari qo‘llaniladi. Ulardan yeng mashhuri va ishlatilgani G-koddir. M kod mashinaning yordamchi funksiyalarini boshqarishi mumkin.

Ish dasturi yaratilgandan so‘ng, operator uni CHPU-mashinaga yuklaydi.

CHPU apparati tayyorlanmoqda



Manba: pinterest.com


Operator dasturni ishga tushirishdan oldin u mashinani ishga tayyorlashi kerak, birinchi navbatda - dastlabki ishlov beriladigan qism va asbobni o‘rnatishi,

To‘qimachilik va yengil sanoat mashinasozligida innovatsion texnika va texnologiyalar

mashinaning ish holatida yekanligiga va barcha tizimlarning ishlashiga, agar kerak bo‘lsa, kalibrlashni amalga oshirishi kerak.

Mashina to‘liq sozlangandan so‘ng, operator dasturni ishga tushirishi mumkin.

Qayta ishslash operatsiyasini bajarish



Dastur CHPU apparati drayvlari uchun ko‘rsatma vazifasini bajaradi, uning dvigatellarini ishlov beriladigan qism va asbobni harakatga keltirishga, ularning nisbiy holatini o‘zgartirishga majbur qiladi. Nazoratchi qo‘zg‘aysan motorlariga elektr impulslarini dastur tomonidan belgilangan tartibda va belgilangan muddatda uzatadi, shu bilan chana operator tomonidan belgilangan harakatlarni bajaradi.


5. CHPU dastgohlari uchun dastur turlari

Mashinalarni boshqarish dasturlarini yaratish va ishga tushirish uchun qo‘llaniladigan dasturlar quyidagi toifalarga bo‘linadi:


- CAD
- CAM
- CAYE

